



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA "YASHIL" IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqqan boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: info@xs.uz

2025-yil 24-iyun, № 127 (9022)

Seshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini
telefoningiz orqali skaner qiling.



O'ZBEKISTON — MALAYZIYA: KO'P QIRRALI MUNOSABATLAR DOIRASI YANADA KENGAYTIRILADI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Malayziya Bosh vazirining o'rinbosari, energetik o'tish va suv resurslarini transformatsiya qilish vaziri Fadilloh bin Yusuf boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.



Malayziyaning nufuzli delegatsiyasi ikki tomonlama muzokaralar o'tkazish hamda Samarqand shahridagi Birlashgan Millatlar

Tashkilotning Davlat xizmati bo'yicha forumida ishtirok etish uchun rasmiy tashrif bilan mamlakatimizda bo'lib turibdi.

Uchrashuv avvalida Fadilloh bin Yusuf davlatimiz rahbariga Bosh vazir Anvar Ibrohimning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

O'zbekiston — Malayziya ko'p qirrali munosabatlari joriy yil fevral oyida Kuala-

Lumpurga amalga oshirilgan oliy darajadagi tashrifda erishilgan kelishuvlar doirasida yanada kengaytirish masalalari ko'rib chiqildi.

Turli darajalardagi aloqalar, tashriflar va almashinuvlar faollashgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi. Joriy yil boshidan tovar ayirboshlash hajmi 25 foizga oshdi. Qo'shma korxonalar soni va aviaqatnovlar ko'paydi. 24-iyun kuni ikki mamlakat yetakchi kompaniyalari ishtirokida biznes forumi bo'lib o'tadi.

Iqtisodiy hamkorlikda mavjud salohiyatni ro'yobga chiqarish hamda savdo, innovatsiyalar, "yashil" energetika, neft-gaz va kimyo, geologiya, suv resurslarini boshqarish, elektronika va yarimo'tkazgichlar sanoati, sog'liqni saqlash, kadrlar tayyorlash, ziyorat turizmini rivojlantirish va boshqa ustuvor yo'nalishlarda kooperatsiya loyihalarini faol ilgari surish muhimligi qayd etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTINING DAVLAT XIZMATI BO'YICHA FORUMI ISHTIROKCHILARIGA

Hurmatli Forum qatnashchilari!

Hurmatli mehmonlar!
Avalambor, sizlarni Markaziy Osiyo mintaqasida ilk bor o'tkazilayotgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Davlat xizmati bo'yicha forumining ochilishi bilan chin qalbidan samimiy muborakbod etaman.

Forumni dunyo sivilizatsiyalari chorhasida joylashgan Samarqand shahrida o'tkazish borasidagi tashabbusimizni qo'llab-quvvatlagani uchun Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Antoniu Gutterish Janobi Oliyilariga alohida minnatdorlik bildirmoqchiman.

Fursatdan foydalanib, BMT tashabbusi bilan dunyoda keng nishonlanib kelayotgan 23-iyun — Davlat xizmati kuni bilan barchangizni qizg'in tabriklayman.

Barchamizga ayonki, bugungi kunda dunyo barqaror rivojlanishga to'siq bo'layotgan siyosiy ziddiyatlar kuchayishi, iqlim o'zgarishi, tabiiy va inson resurslarining tanqisligi, kibertahdidlar kabi global muammolar bilan to'qnash kelmoqda.

"2030-yilga qadar 5 yil: Barqaror kelajak uchun xizmat ko'rsatish jarayonlarini jadallashirish" mavzuida o'tkazilayotgan mazkur xalqaro anjuman global taraqqiyotda muhim o'rin tutadigan davlat boshqaruvi va davlat xizmati tizimini takomillashtirish, uni zamon bilan hamnafas holda yangi bosqichga ko'tarish, kadrlar salohiyati va ularning faoliyat samaradorligini oshirish, bu borada xalqaro hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qilishi shubhasiz.

Mazkur tadbirimizda Birlashgan Millatlar Tashkiloti va boshqa nufuzli xalqaro tuzilmalar, dunyoning turli qit'a va mintaqada davlatlardan kelgan 400 ga yaqin delegatlar ishtirok etayotgani ham ushbu an'anaviy anjumanning maqomi tobora ortib borayotganini yaqqol ko'rsatadi.

Hurmatli Forum ishtirokchilari!

Bugungi kunda davlat boshqaruvida raqamli transformatsiyani rag'batlantirish, davlat xizmatlarini ko'rsatishning innovatsion yechimlarini qo'llash, davlat sektori institutlarida samaradorlikni keskin oshirish, liderlik boshqaruv uslubini rivojlantirish, uzluksiz ta'lim olishni kengaytirish va bo'lajak rahbarlar uchun zarur ko'nikmalarni belgilash bo'yicha ilg'or tajriba almashish har qachongidan ham dolzarb ahamiyatga egadir.

Dunyoga tobora ochilayotgan, jadal islohotlar yo'lidan borayotgan va ilg'or xalqaro tajribani keng tatbiq etayotgan, "davlat — xalq uchun" tamoyiliga qat'iy amal qilib kelayotgan Yangi O'zbekiston davlat xizmati sohasida global o'zgarishlarning ajralmas bir qismiga aylangan alohida ta'kidlashni istar edim.

So'nggi yillarda O'zbekistonda davlat xizmatini chinakamiga inklyuziv xalq xizmatiga aylantirish bo'yicha tizimli islohotlarni olib bormoqdamiz. Jumladan, xalqaro ekspertlar bilan birgalikda "Davlat fuqarolik xizmati bo'yicha" qonun tayyorlandi.

Islohotlarning har bir xonadonga qadar kirib borishi uchun mahallabay ishlash tizimi yo'lga qo'yildi, manzilli ko'mak va ijtimoiy himoya instituti kuchaytirildi, xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi ulushi 35 foizga yetib, mamlakatimiz bu borada mintaqada yetakchi o'rinni egalladi. 700 dan ziyod davlat xizmatlari "yagona darcha" tamoyili asosida onlayn platformalar orqali amalga oshirilmoqda.

Davlat xizmati va boshqaruvi jarayonlarini to'liq raqamlashtirish natijasida O'zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkilotining elektron hukumatlar rivojlanish darajasi bo'yicha global reytingida 24 pog'onaga, Sun'iy intellektga tayyorlik bo'yicha xalqaro indeksda so'nggi bir yil ichida 17 pog'onaga ko'tarildi.

Davlat fuqarolik xizmatini yangi yondashuvlar asosida tashkil etish maqsadida zamon talablariga mos iqtidorli mutaxassislarni jalb qilish va professional davlat xizmatlari korpusini shakllantirish bo'yicha kadrlar tayyorlash klasterini tashkil etildi.

Institutsional salohiyatni oshirish va inson kapitaliga sarmoya kiritishga ko'maklashish uchun xalqaro tajriba asosida endaument imkoniyatlaridan foydalanish yo'lga qo'yilmoqda. Shu bois sizlarni O'zbekistonda davlat xizmatida raqamli transformatsiya bo'yicha Global bilim markazini ochish, xalqaro Yosh yetakchilar maktabini tashkil etish kabi global tashabbuslarimizni qo'llab-quvvatlashga chaqiramiz.

Bu tashabbuslar Hukumatlar, novatorlar va rivojlanish bo'yicha sheriklar o'rtasida almashuvlarni faollashtirish, kelajak avlod davlat xizmatlarini tarbiyalash, boshqaruvda va kundalik hayotda raqamli vositalardan keng foydalanish, davlat sektorida innovatsiyalarni joriy etish uchun katta imkoniyatlar eishigini ochadi.

Bunday muhim tashabbus va takliflar Forum doirasida qabul qilinadigan Samarqand deklaratsiyasida o'zining to'liq ifodasini topishiga, mazkur muhim hujjat hammamiz uchun inklyuziv, barqaror va inson manfaatlariga yo'naltirilgan davlat xizmatiga erishish yo'lida birgalikda harakat qilish bo'yicha o'ziga xos dasturlamal bo'lishiga ishonaman.

Fursatdan foydalanib, bu ezgu yo'lida barchangizga ulkan kuch-g'ayrat va omadlar, Forum ishiga muvaffaqiyat tilayman.

Shavkat MIRZIYOYEV
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

"YASHIL" ENERGETIKANI JADAL RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN YANGI REJA VA LOYIHALAR

Prezident Shavkat Mirziyoyev 23-iyun kuni yirik sanoat korxonalarini "yashil" energiya bilan ta'minlash chora-tadbirlariga oid taqdimot bilan tanishdi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini barqaror quvvat manbalari bilan ta'minlash maqsadida "yashil" energetika jadal rivojlantirilmoqda. Qisqa davrda bu sohaga qariyb 6 milliard dollar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya kirib keldi. Yillik elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmi avvalgi 59 milliarddan hozirda 82 milliard kilovatt-soatga yetdi.

2030-yilga borib yurtimiz aholisi 41 milliondan, iqtisodiyot hajmi 200 milliard dollardan oshishi kutilmoqda. Tabiiyki, bu elektr energiyasiga qo'shimcha talab tug'diradi. Shuning uchun qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng ishga solish choralarini ko'rilmogda.

Taqdimotda bu yil amalga oshirilayotgan loyihalar va yaqin kelajakdagi rejalar haqida axborot berildi. Ulardan asosiy maqsad generatsiya, modernizatsiya va energiya samaradorlikdir.

Xususan, yil yakunigacha 12 ta quyosh va 4 ta shamol elektr stansiyasi, 12 ta energiya saqlash tizimi ishga tushiriladi. Ularga jami investitsiya hajmi 5 milliard dollardan ziyod bo'lib, salkam 9 milliard kilovatt-soat quvvatga ega bo'ladi. Shuningdek, bu yil umumiy qiymati 7 milliard 200 million dollarlik yana 11 ta loyiha qurilishi boshlanadi.

Energiyani nafaqat ishlab chiqarish, balki tejash ham juda muhim. Davlatimiz

rahbari tomonidan energiya isrofini kamaytirish, ayniqsa, yirik sanoat korxonalarida tejamon uskunalar o'rnatish vazifasi qo'yilgan.

Yurtimizda jami elektr iste'molining uchdan bir qismi 18 ta tarmoqqa to'g'ri keladi. Masalan, suv xo'jaligidagi nasoslarga yiliga 6,5 milliard kilovatt-soat elektr sarflanyapti.

Shu bois 12 ta yirik nasosni modernizatsiya qilib, har biriga 75-100 megavattli quyosh stansiyasi hamda 50 megavattli saqlash qurilmasi o'rnatish vazifasi belgilandi. Natijada nasoslarning elektr sarfi yiliga 2 milliard kilovatt-soatga kamayib, 4,5 milliard kilovattga tushadi. Bu ishlar, avvalo, suv chiqarish tannaxi baland bo'lgan Qarshi magistral kanalidan boshlanadi.

Neft-gaz korxonalarida ham 240 megavattli quyosh stansiyasi va 300 megavattli saqlash qurilmalari o'rnatib, kamida 600 million kilovatt-soat elektr olish imkoniyati bor.

Umuman, yig'ilishda elektr iste'moli yuqori 18 ta tarmoqni o'zini o'zi energiya bilan ta'minlaydigan tizimga o'tkazish chora-tadbirlari muhokama qilindi. Ijtimoiy muassasalarda quyosh energiyasidan foydalanish borasidagi ishlar haqida ham axborot berildi.

O'ZBEKISTON PREZIDENTI DAVLAT TASHRIFI BILAN MO'G'ULISTONDA BO'LADI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Mo'g'uliston Prezidenti Uxnaagiyun Xurelsuxning taklifiga binoan 24-25-iyun kunlari davlat tashrifi bilan ushbu mamlakatda bo'ladi.

Tashrif dasturiga muvofiq Ulan-Bator shahrida oliy darajadagi ikki tomonlama uchrashuv va muzokaralar o'tkazilishi ko'zda tutilgan.

O'zbekiston bilan Mo'g'uliston o'rtasidagi do'stlik va amaliy hamkorlik munosabatlari yanada rivojlantirish masalalari ko'rib chiqildi.

Tovar ayirboshlash hajmini oshirish va nomenklaturasini kengaytirish, sanoat tarmoqlari, qishloq xo'jaligi, konchilik, transport sohalari va boshqa ustuvor yo'nalishlarda kooperatsiya loyihalarini ilgari surish, faol madaniy-gumanitar almashinuvni davom ettirish e'tibor markazida bo'ladi.

Sammit yakunida kelishuvlar to'plami qabul qilinishi kutilmoqda.

O'ZA.

PRAGMATIZM SIYOSATI

Yangi O'zbekistondagi islohotlar negizida quruq so'z va va'dalar emas, balki muayyan ishlar, tadbirlar mujassam

Mulohaza

Bundan bir necha o'n yil avval minbardan turib so'z aytish uzoq davom etgan mashaqqatli mehnat, chuqur bilim va mas'uliyat tufayli erishilgan yuksak mavqe hisoblanardi. O'sha davrlarda jamiyat nomidan gapirish uchun inson muayyan hayotiy va rahbarlik yo'lini bosib o'tgan, xalq ichida obro'-e'tibor qozongan bo'lishi kerak edi. Shu bois ma'ruzalar va

chiqishlarda quruq safsataga yo'l qo'yilmadi.

Bir lahzada efriga chiqish hammaga ham nasib etmasdi, so'zning yuki og'ir edi. Bu esa jamiyat bilan muloqot hamda siyosiy madaniyatning yetukligidan dalolat edi.

Bugun hamma narsa o'zgardi. Bir lahzadayoq o'z fikrini bildirish davri kelib OAV, internet saytlari va ijtimoiy tarmoqlarda har kim xayoliga kelgan gapni ayta boshladi. Ammo aytgan

so'zlari uchun javob berish mas'uliyati-chi? Hammayam bunga qodir emas. Mediamakon turi va'dalar, shiorlar va bayonotlar bilan to'lib-toshdi. Ularning ortida esa natija yoki strategik reja doim ham mavjud emas. Shunaqa holatgayam quvoh bo'lmoqdamizki, hatto xalqaro kun tartibiga tegishli eng muhim mavzular shaxsiy "piar"ga, dastakka aylanib qolyapti.

Xo'sh, ana shunday sharoitda O'zbekistonda nimalar yuz bermoqda?

Jurnalistika sohasida ko'p yillar mehnat qilgan inson sifatida dadil ayta olamanki, bizning yurtimizda ahvol boshqacha.

Prezident Shavkat Mirziyoyev pragmatik siyosat olib bormoqda, uning asosida esa — balandparvoz so'zlar emas, balki aniq reja, muayyan ish va fikr mujassam. Bu islohotlar ortiqcha maqtovlarsiz, balki sezilarli yutuqlar bilan amalga oshirilayotganidan dalolat.



Bu sonida:
BMT forumi:
XALQARO HAMKORLIKNI
MUSTAHKAMLASH UCHUN
MUHIM PLATFORMA



Sirojiddin SAYYID,
O'zbekiston xalq shoiri,
Oliy Majlis Senati a'zosi

PARKENT
SHABADALARI

2- sahifaga qarang.

SHIDDATLI O'ZGARISHLARGA
YUZ BURAYOTGAN DIYOR



5- sahifaga qarang.

O'ZA.

Senatorlar – hududlarda

SIRDARYODA BIR QANCHA SOHALARDAGI MUAMMOLAR O'RGANILDI

Avval xabar berganimizdek, Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva boshchiligidagi ishchi guruh Sirdaryo viloyatida o'rganishlar olib bordi. Dastlab xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashi va uning kotibiyati faoliyati o'rganildi. Xususan, xalq vakillarining fuqarolar bilan bevosita muloqot orqali mahalla va oilalardagi muammolarni hal etishdagi o'rni hamda tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash mexanizmi tahlil qilindi.

Shuningdek, mahalliy Kengash deputatlarining qonuniylik, ijtimoiy adolatni ta'minlash va aholining turmush darajasini oshirishga qaratilgan faoliyati ko'rib chiqildi. Ta'kidlanganidek, deputatlarining fuqarolar bilan o'rnatgan doimiy muloqoti murojaatlarning hal bo'lishiga, mahallalardagi infratuzilmani yaxshilashga, ta'lim, tibbiyot va bandlik sohalardagi muammolar tahliliga va joylarda muhim tashabbuslarni amalga oshirishga xizmat qilmoqda.

O'rganishlardan shu narsa ayon bo'lmoqdaki, mahalliy darajadagi muammolarni aniqlash va bartaraf etish barobarida deputatlar mas'uliyati tobora oshib, jamiyatdagi roli kuchaymoqda, natijada deputatlik nazorati ishlari ham jamiyatga ijobiy ta'sirini namoyon etmoqda.

Senat ishchi guruhi tomonidan mahalliy Kengashlar faoliyatida kelgusida qaysi yo'nalishlarda e'tiborni kuchaytirish, aniq natijalarga erishish, fuqarolar ishonchini mustahkamlash borasida zarur tavsiyalar berildi va yangi vazifalar belgilab olindi.

Senatorlar o'z o'rganishlarini davom ettirib, Sirdaryo tumanida joylashgan Paxtakor mahallasi "mahalla yetiligi"ning faoliyati bilan yaqindan tanishdi.

Aholi bandlegini ta'minlash, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy himoya choralarini kuchaytirishga qaratilgan ishlarni amalga oshirish barobarida ishsiz fuqarolarga kreditlar ajratilishi, yangi kichik biznes loyihalari yo'lga qo'yilgani ta'kidlandi.

Ma'lum bo'lishicha "ayollar daftari" va "yoshlar daftari" orqali aholining ijtimoiy zaif qatlamini qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilayotir. Xususan, "ayollar daftari"dagi 140 nafar xotin-qiz va "yoshlar daftari"dagi 14 nafar yoshga davlat tomonidan subsidiyalar ajratilgan. Shuningdek, 12 nafar ayol va 2 nafar yigit-qiz imtiyozli kreditlar orqali o'z tadbirkorlik faoliyatini boshlagan.

Mahallada iqtisodiy faollikni oshirish maqsadida 85 ta maishiy xizmat ko'rsatish va savdo shoxobchasi, shuningdek, 4 ta tikuvchilik va 2 ta qandolatchilik sexi tashkil etilgan. Bu kabi kichik ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish

infratuzilmalari aholi bandlegini ta'minlashga xizmat qilishi qayd etildi.

Senat ishchi guruhi viloyat "Hunarmandlar markazi"da bo'lib, hunarmandlar va faol ayollar bilan uchrashdi.

Ochiq muloqot davomida xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar va kelgusidagi rejalarga alohida e'tibor qaratildi.

Ishchi guruh a'zolari xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish maqsadida hududlarda amalga oshirilayotgan ishlarga to'xtalib, bu jarayonni qo'llab-quvvatlashga ustuvor ahamiyat qaratilayotganini ta'kidlashdi va joylarda ayollar bandlegini ta'minlash, ularning tadbirkorlik salohiyatini ro'yogga chiqarishga doir yangi imkoniyat va mexanizmlar ishlab chiqilayotgani haqida fikr yuritildi.

Senat ishchi guruhi a'zolari Sirdaryo viloyatiga tashrif doirasida nafaqat sanoat sohasidagi yutuqlar, balki mahalliy darajadagi islohotlar, aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, tadbirkorlikni rag'batlantirish va infratuzilmani yaxshilash sohalarida amalga oshirilayotgan ishlar bilan ham yaqindan tanishdi.

Xususan, ishchi guruh a'zolari farmatsevtika sohasiga ixtisoslashtirilgan "River-med" korxonasi bo'lib, mehnat jarayonini ko'zdan kechirdi.

Korxonada o'zining yuqori texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarish jarayoni, eksport salohiyati va ish o'rnlari yaratish borasidagi natijalari bilan e'tiborga loyiq.

Mazkur ishlab chiqarish korxonasi yiliga 42 mln. dona infuzion eritmali dori vositasini ishlab chiqarish quvvatiga ega. Yiliga 1,5 mln. dollarlik eksport va Davlat byudjetiga 82 mlrd. so'mlik tushum uni hududdagi muhim sanoat subyektlaridan biriga aylantirgan. Yaqin istiqbolda korxonada 250 ta ish o'rni yaratilishi rejalashtirilmoqda.

Ishchi guruh a'zolari korxonada xodimlari bilan o'tkazgan muloqot davomida aniqlangan muammolar va bildirilgan takliflar asosida tegishli tavsiyalar ishlab chiqilishi nazarda tutilmoqda.

"Xalq so'zi".

Seminar

YOSHLAR PARLAMENTINING O'QUV SEMINARLARI O'TKAZILMOQDA

Mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosatini samarali amalga oshirish, ularni qonun ijodkorligi jarayonlariga faol jalb etish, siyosiy pozitsiyalarini mustahkamlash, huquqiy ongi va madaniyatini shakllantirish maqsadida tizimli ishlar olib borilmoqda.

Shu maqsadda Oliy Majlis Senati huzuridagi Yoshlar parlamentini tashabbusi bilan faollar jamoasi tashkil etildi. Ushbu jamoa orqali yoshlarning huquqiy-siyosiy jarayonlardagi ishtiroki yanada jonlandi.

Iyun – "Yoshlar oyligi" doirasida faollar jamoasi va Yoshlar maslahati guruhi a'zolari uchun respublika hududlarida o'quv seminarlari o'tkazilmoqda. Jumladan, 19 – 23-iyun kunlari bunday seminarlar Qoraqalpog'iston Respublikasi, Andijon, Farg'ona, Buxoro, Namangan, Sirdaryo va Samarqand viloyatlarida bo'lib o'tdi.

Mazkur seminarlarda ishtirokchilar loyiha boshqaruvi, notiqlik mahorati, jamoani shakllantirish, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish va foydali kontent tayyorlash kabi yo'nalishlarda bilim hamda ko'nikmalarga ega bo'ldi. Seminarlar yakunida ishtirokchilarga maxsus sertifikat va a'zolik ishonch yoriqlari topshirildi.

E'tiborlisi, bunday seminarlar boshqa hududlarda ham davom ettiriladi. Bu esa yoshlarga o'z salohiyatini namoyon etish, qonun ijodkorligi jarayonlarida faol qatnashish imkonini beradi.

"Xalq so'zi".

Siyosiy partiyalar fraksiyalarida

IJTIMOY HIMOYANI KUCHAYTIRISH IMKONIYATLARI

Siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyalarining yig'ilishlari bo'lib o'tdi. Ularda dastlab Prezidentimizning hududlar rivoji, islohotlar natijadorligi bilan yaqindan tanishish maqsadida shu yil 19-20-iyun kunlari Qashqadaryo viloyatiga tashrifi davomida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini ta'minlashda fraksiyalar oldida turgan muhim yo'nalishlar muhokama qilindi. Deputatlar korpusi saylov okruglaridagi faoliyatlari davomida belgilab berilgan har bir topshiriq va vazifaning mazmun-mohiyatini mahalliy ijro organlari rahbarlariga yetkazishlari va jamoatchilik nazoratini yo'lga qo'yishlari lozimligi urg'ulandi. Shuningdek, quyi palataning navbatdagi majlisi kun tartibiga kiritilishi rejalashtirilayotgan qator qonun loyihalari ham atroflicha ko'rib chiqildi.



Tadbirkorlar va ishlabarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga valyuta va qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar muomalasi bilan bog'liq munosabatlarni takomillashtirishga qaratilgan qo'shimchalar va o'zgartirish kiritish haqida"gi qonun loyihasining muhokamasi qizg'in kechdi.

Ma'lum qilinganidek, keyingi yillarda valyuta sohasini takomillashtirish, qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlarning muomalada bo'lishi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan keng ko'lami islohotlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, valyuta qimmatliklarining noqonuniy muomalasiga qarshi kurashish sohasida qator muammolar va huquqiy bo'shliqlar mavjud bo'lib, ularni bartaraf etish zarurati yuzaga kelyapti.

Ushbu qonun loyihasi valyuta hamda qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar sohasidagi qonun hujjatlarining bir xilda qo'llanilishiga, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishga hamda jinoyat uchun jazoning muqarrarligini ta'minlashga qaratilgan.

U bilan Jinoyat hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslarga qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlarni qonunga xilof ravishda olganlik yoki o'tkazganlik uchun ma'muriy va jinoyi javobgarlikni nazarda tutuvchi qo'shimchalar kiritilmoqda.

Shuningdek, qonun hujjatlaridagi valyuta qimmatliklari, qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar sohasidagi tushunchalar o'zaro muvofiqlashtirilmoqda. Qolaversa, valyuta tushumining bir qismini majburiy sotishdan bo'yin tovlanlik uchun ma'muriy javobgarlikni bekor qilish ko'zda tutilyapti.

Munozaralar davomida fraksiya a'zolari Otabek Musurmonov, Saydullo Azimov va boshqalar hujjatning ahamiyatiga e'tibor qaratib, undagi ayrim normalar bo'yicha qonun tashabbuskorlarini savollarga tutishdi. Mutasaddirlar ko'tarilgan masalalarga oydinlik kiritib, berilgan takliflar uni takomillashtirish jarayonida e'tiborga olinishi va ular asosida hujjat matni maromiga yetkazilishini ta'kidlashdi.

O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida kun tartibidagi dolzarb masalalar qatorida "Xalqaro metrik konvensiyaga (Parij, 1875-yil 20-may, 1907-yil 17-oktyabr) dagi, 1913-yil 11-oktyabr) dagi va 1921-yil 6-oktyabr) dagi o'zgartirish va

qo'shimchalari bilan) O'zbekiston Respublikasining qo'shilishi haqida"gi qonun loyihasi ko'rib chiqildi.

Xalqaro metrik konvensiya 1875-yil Parij shahrida bo'lib o'tgan diplomatik konferensiyada doirasida 17 ta mamlakat vakillari tomonidan imzolangan. Hozirgi kunga kelib konvensiyada 64 ta davlat, jumladan, Turkiya, Fransiya, Germaniya, Qozog'iston, Xitoy, Janubiy Koreya, Yaponiya qo'shilgan hamda 37 ta davlat, xususan, O'zbekiston uyushgan a'zo sifatida ishtirok etmoqda.

Fraksiya yig'ilishida ushbu konvensiyaga qo'shilish natijasida mamlakatimiz savdo-iqtisodiy salohiyatining yanada oshishi zaminida Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishi yo'lidagi ishlar jadalashishi qayd etildi. Ya'ni xalqaro savdo masalalari,

takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi munozaralar markazida bo'ldi.

Qayd etilganidek, bugungi kunda valyuta qimmatliklarining noqonuniy muomalasiga qarshi kurashish sohasida ko'plab muammolar va huquqiy bo'shliqlar mavjud bo'lib, ularni bartaraf etish zarurati mavjud.

Shundan kelib chiqib, loyiha bilan Jinoyat kodeksiga va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlarni qonunga xilof ravishda olganlik yoki o'tkazganlik uchun ma'muriy va jinoyi javobgarlikni nazarda tutuvchi qo'shimchalar kiritilmoqda.

Fraksiya a'zosi Manzura Salimova qonun loyihasi yuzasidan o'z munosabatini bildirar ekan, zargarlik



jumladan, eksport-import sohasining ajralmas qismi bo'lmish metrologiya sohasida xalqaro hamkorlik sezilarli darajada kengayadi, mavjud texnik to'siqlar kamayadi.

Deputatlar Xalqaro metrik konvensiyaga qo'shilishning muhim jihatlari va imkoniyatlariga e'tibor qaratdi.

Qayd etilganidek, mazkur konvensiyaga qo'shilish mamlakatimizda o'tkazilgan o'lchashlar natijalarining xalqaro darajada tan olinishiga erishish hamda savdo va eksport salohiyatini yanada oshirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatidir.

Savol-javoblardan so'ng ushbu qonun loyihasi fraksiya a'zolari tomonidan qo'llab-quvvatlandi. O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida kun tartibidan o'rin olgan qator qonun loyihalari atroflicha muhokama qilindi. Jumladan, valyuta hamda qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar muomalasi bilan bog'liq shu munosabatlarni

sohasidagi noqonuniy faoliyatga nisbatan javobgarlikni belgilash tashabbusi ijobiy qadam bo'lib, bozorni tartibga solish orqali mamlakatning umumiy iqtisodiy ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir qilishiga umid bildirdi.

Deputat Shuhrat Yoqubov esa qonun loyihasidagi ayrim normalar bo'yicha aniqlashtiruvchi savollar berdi. Mutasaddirlar ko'tarilgan savollar bo'yicha batafsil tushuntirish berib o'tdi.

Fraksiya a'zolari mazkur hujjat valyuta hamda qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar sohasidagi qonun hujjatlarining bir xilda qo'llanilishiga, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishga xizmat qilishini e'tiborga olib, uni bir ovozdan qo'llab-quvvatlandi.

O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida "Ijtimoiy ish to'g'risida"gi qonun loyihasi atroflicha ko'rib chiqildi.

Loyiha bilan ijtimoiy ishchi vazifasi, uning majburiyatlarini, jamiyatda tutgan o'rni va aholining ehtiyojmand qatlamlari bilan ishlash usullari huquqiy

jihatdan belgilab berilmoqda. Fraksiya a'zolari mazkur qonun loyihasi partiya elektorati bo'lgan ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamiga va muhtoj aholi qatlamiga qo'shilishda prinsiplar ahamiyat kasb etishini ta'kidlashdi.

Qayd etilishicha, endilikda mamlakatimizda ijtimoiy xodimning huquqiy maqomi belgilanib, ularning faoliyati uchun munosib sharoit yaratish hamda qo'llab-quvvatlash choralarini muammasi. Bu esa partiya elektorati munosabati aniqlanishi va samarali yechim topishiga xizmat qiladi.

Qonun loyihasining yana bir ahamiyatli jihati shundaki, ijtimoiy xizmatlar birlamchi, ixtisoslashgan va yuqori ixtisoslashgan turlarga ajratilmoqda. Ya'ni ijtimoiy xizmatlar fuqaroning uyida, mahallasida, ijtimoiy obyektlarda hamda onlayn shaklda ko'rsatilishi nazarda tutilmoqda. Deputatlar ijtimoiy faoliyatning xalqimizga yaqin bo'lishi muhimligini qayd etdi. Ayniqsa, nogironligi bor shaxslarga qulay va professional xizmat ko'rsatilishiga e'tibor qaratildi.

Fraksiya a'zolari qonun loyihasi bo'yicha ayrim aniqlashtiruvchi savollar va taklif-mulohazalarini bildirdi. Loyihani ikkinchi o'qishga tayyorlash jarayonida mas'ul qo'mita bilan izchil hamkorlik qilinishi aytildi. Yuqoridagi asoslarga ko'ra loyiha konseptual ravishda qo'llab-quvvatlandi.

O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida fraksiya a'zolari tomonidan "Ijtimoiy ish to'g'risida"gi qonun loyihasi ko'rib chiqildi.

Ta'kidlanganidek, qonun loyihasi bilan ijtimoiy ish sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari, ijtimoiy ish tashkil etiladigan sohalar, ijtimoiy ishni tashkil etishda idoralararo hamkorlik, ijtimoiy xodimning maqomi, vazifalari va majburiyatlarini hamda maxsus vakolatli davlat organi va uning vakolatlari belgilanmoqda.

Shuningdek, ijtimoiy himoyaga muhtoj oila (shaxs)ni aniqlash va ularni ijtimoiy himoyaga muhtoj oila (shaxs) deb topish asoslari, ijtimoiy xizmat va yordamlardan foydalanuvchilarning huquqlari va majburiyatlarini nazarda tutilyapti.

Yig'ilishda fraksiya a'zolari qonun loyihasining ahamiyati va zaruratiga alohida to'xtalib, uni takomillashtirish bo'yicha qator takliflar berdi. Qizg'in muhokamadan so'ng qonun loyihasi qo'llab-quvvatlandi.

Fraksiyalar yig'ilishlarida kun tartibiga kiritilgan boshqa masalalar ham atroflicha ko'rib chiqildi va tegishli qarorlar qabul qilindi.

"Xalq so'zi".

Iftixor



PARKENT SHABADALARI

Sirojiddin SAYYID, O'zbekiston xalq shoiri, Oliy Majlis Senati a'zosi

Ey, ulug' zotlarni ulg'aytgan diyor, Hazrati Boburni uyg'otgan diyor. Valiy bobolarning xabarini bergan – Ya'ni shoh Boburning zafarin bergan.

Bu gaplar necha yuz yillardan bo'ylar, "Boburnoma"larda kelgandir bular. Vosifiy bobo ham aytmiş barini, Qilmish xo'p ta'rifu tavsiflarini.

Ul zotning tarixiy "Voqe'noma"si – Ulug' bir millatning boqiy nomasi. Har ungan maysasi – qiroat tuproq, Har xoru har xasi – karomat tuproq.

Kechmiş zamonlarni ko'rdim axtarib, Butun bir xalq o'tmiş zabun va g'arib. Orzu-umidlari ko'karmagan xalq, Ro'zg'ori, turmushi o'ngarmagan xalq.

Gapni uzoqlardan boshladim, uzr. Men "Vatanim!.." desam topgayman huzur.

Shukurkim, shu bog'u bo'ston aroman, Bog'u bo'stoin aro dostonaroman.

Parkent tuprog'ida, Parkent elida, Yuksak cho'qqilarning "Oltinbel"ida, Elimning zavq ila sururin ko'rdim, Qaddu bastin ko'rdim, g'ururin ko'rdim.

Xalqning keng ushalgan a'mollari bu, Yastangan istiqloq shamollari bu. Maktab borayotgan talabalardir, Bular – ozodlikdan shabadalardir.

Hurriyatlar o'sar, Erkinlar o'sar, Demak, erkinlikdan epkinlar esar. Tamosho qil o'tib, kuzatgil ko'rkin, "Parkentsoy" bo'yida uylarni ko'rgin.

O'n mingdirmi va yo yuz ming xonadon, Ko'ra-taxmonlarni taxlan, onajon. Musallas tortoganday G'afur al-G'ulom, Quyosh ham mahliyo bo'lmishdir tamom.

Tunda oy-yulduzlar elagin elar, Shu go'zal sohilga tushgisi kelar.

Tog'da ijod uyi, ya'ni Zarkentdir, Uyg'oq Parkentdir bu, uyg'oq Parkentdir.

Manov mahallaning nomi "Kumushkon", Necha Otabeku necha Kumushxon – Bunda ota-ona mehridan yayrab, Bulbul kabi sayrab, qumriday sayrab –

Sadoqat bog'ida kamol topgaylar, Saodat topgaylar, visol topgaylar. Men bu gaplarimni yozmadim bekor, Xalqi bedor doim, qabi ham bedor.

Uyg'oqlik manzilu ma'vosidadir, Mehnati mazmunu ma'nosidadir. Bedorlik beorom eshiklarida, Daryolar o'smoqda beshiklarida.

Meva-chevalari pishib paydar-pay, Yuz ming o'lkalarga jo'namoqqa shay. Nozu ne'matlari qator eldir bu, Yil – o'n ikki oy ham bedor eldir bu.

Sendan o'rgangandim eldorlikni men, Sendan o'rgansaydim bedorlikni men.

Kimlar mashg'ul erur "mish-mish"ing bilan, Sen dunyoni olding "kishmish"ing bilan.

Seni tadbirkorim – madorim dedim, Madadkorim dedim, darkorim dedim. Agar har opa, har singil oboddir – Demak, mahalla-ko'y Ko'ngiloboddir.

Millyonlab dillarning shabodasiday, Yangi hayotingning ifodasiday – Hali Baytqo'rg'ondan kelar poyezdlar, Shoshqin zamoningday yelar poyezdlar.

Bir yuz sakson uch ming aholisin men, Shoirlari ichra navolisin men, Aytgin desalar gar, dil chiroqlarin Yoqib, ko'rsatardim childirqlarin.

Bular mening zarbdor zarkorlarimdir, Men mizg'ib qolqanda bedorlarimdir. Vatan mehrin dilga qutb etganday, Navoiy bobomiz lutf etganday:

Agarkim ko'ngillar bog'u chamandir – Obod Vatandir bu, obod Vatandir. Mamlakatni kezib, har kentni ko'ring, Keyin qaytib kelib Parkentni ko'ring.

Demangkim: har joyda har xil shamollar. Butun mamlakatda – bir xil shamollar, Bedor el misoli kezmoqdadir, Yastanib-yastanib esmoqdadir.

Samsarak bo'lsin, xoh Hisorak bo'lsin, Uyg'oq qo'rg'onlarning muborak bo'lsin! Dunyo shamollari esar sen tomon, Bugun sen o'zingnan sohibi davron.

Ey oftobshamoldan nur olgan tuproq, Bog'laring ham uyg'oq, tog'laring uyg'oq. Bag'ring nur-ziyoga hali to'lgusi, Mening ham yuzlarim yorug' bo'lgusi.

Davlatlar safida dastxattaring bor, Davlatboshing bordir – davlat senga yor. Elim, baland bo'lsin martabalar, Mangu esaversin shabadalaring.

Topgan halol noning, shoningga qasam, Tun-kun hilpiragan bayrog'ingni ham – Nomini bedorlik atab qo'ygayman, "Oltinbel" cho'qqingga qadab qo'ygayman.

PRAGMATIZM SIYOSATI

Yangi O'zbekistondagi islohotlar negizida quruq so'z va va'dalar emas, balki muayyan ishlar, tadbirlar mujassam

“Markazdagi davlat” mas’uliyati

O'zbekistonda kechayotgan keng ko'lamlı iqtisodiy transformatsiya jarayoni sezilarli natija ko'rsatmoqda. Mamlakatimizda barqaror o'sish kuzatilyapti, bunda esa chuqur o'ylangan qarorlar hamda ijtimoiy yo'naltirilgan siyosat davom ettirilmoqda. Keyingi sakkiz yilda O'zbekistonning yalpi ichki mahsuloti ikki baravar oshdi. 2030-yilga borib, ko'rsatkichni 200 milliard dollarga yetkazishdek ulkan, ammo real maqsad belgilab olingan.

Investitsiyaviy muhit ham aniq raqamlarda namoyon bo'lmoqda. Birgina 2024-yilda mamlakatimiz iqtisodiyotiga kiritilgan sarmoyalar 35 milliard dollarga, eksport esa – 27 milliard dollarga yetdi. Bunda o'sish tasodifiy emas, balki tizimli: ya'ni O'zbekiston keyingi besh yilda iqtisodiy erkinlik indeksida 48 pog'onaga ko'tarilgan bo'lsa, Harvard iqtisodiy murakkablik indeksida 28 pog'onaga yuqoriladi. “S&P” xalqaro agentligi mamlakatimizning suveren reytingini ko'tarib, bashoratni “barqaror”dan “ijobiy”ga o'zgartirdi.

Bunday iqtisodiy ko'rsatkichlar ortida butun mamlakat miqyosida amalga oshirilayotgan chuqur islohotlar natijasi turibdi. Shu bilan bir qatorda, aholining farovonligi ortib, hayot sifati yaxshilanyapti. Ijtimoiy yo'naltirilgan tashabbuslar ro'yobga chiqarilmoqda, davlatning infratuzilma asoslari mustahkamlanayotir. Transport infratuzilmasini modernizatsiyalashga alohida e'tibor berilmoqda, chunki u xalqaro iqtisodiyotga integratsiyalashib, aloqalarni kengaytirishning eng muhim tarkibiy qismidir.

Natijada O'zbekiston davlati xalqaro qiziqish kuchayib borayotgan obyektga aylangan. Bu qiziqish hisobotlar va reytinglarda ham, har kungi yangiliklarda ham namoyon bo'lmoqda. Ya'ni mamlakatimiz haqida internetdagi so'rovlar, BAA, Singapur, AQSh, Avstraliya va boshqa davlatlardagi foydalanuvchilarning yurimzigacha sayohat qilish bo'yicha qidiruvlari, ayniqsa, yirik media-maydonchalardan tushayotgan savollar shundan dalolat berib turibdi.

Amerikaning nufuzli nashri – “The Diplomat” hind professori Shanti Mariyent D'Souzaning maqolasini e'lon qildi. Unda O'zbekistonning mintaqaviy siyosatdagi roli markaziy, deb e'tirof etilgan. Professor ta'kidlaganidek, dunyoda beqarorlik ortib borayotgan sharoitda aynan O'zbekiston mamlakatlar va mintaqalar manfaatini birlashtirish bo'yicha strategik jihatdan sinalgan modelni, shuningdek, transport yo'laklarini taklif etmoqda.

O'zbekiston “markazdagi davlat” sifatida Markaziy va Janubiy Osiyo, shuningdek, Yevrosiyo mintaqalari o'rtasida bog'lovchi ko'priklarni bo'lib qoldi, – deb yozadi u.

Bu e'tirof adolatlı va o'rinni. Zotan, xalqaro ekspertlar fikricha, aynan Prezident Shavkat Mirziyoyev mintaqalararo bog'liqlikni chuqurlashtirishga qaratilgan kursning tashabbuskori va yurituvchisi bo'ldi. Bunda mamlakatning tashqi siyosatini yaratuvchanlik va hamkorlik vositasiga aylantirdi.

Xaritada qaraydigan bo'lsak, shu narsa ayon bo'ladi: aynan O'zbekiston – Markaziy Osiyoning jug'rofiy, siyosiy va demografik yadrosi. Keyingi sakkiz yilda Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida bu mamlakat mas'uliyatli rolni o'z bo'yig'iga oldi. Bu rol esa butun mintaqaga uchun birlashtiruvchi omil bo'lishidir.

Sirasini aytganda, bu – o'zbek diplomatiyasining muhim g'alabalaridan biri bo'lib, unda “kam gapirib, ko'proq ish qilish kerak”, degan tamoyil ro'yobga chiqariladi. Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasida muammolar saqlanib turgan hamda kelishmovchiliklar muqarrar bo'lgan davrda Prezident Shavkat Mirziyoyev mintaqaviy integratsiyaga boshqacha tus berdi.

Bir-biridan uzoqlashish siyosatidan voz kechib, rahbarimiz yaxshi qo'shnichilik uchun qo'l cho'zdi: chegara muammolari hal etildi, o'zaro muloqot yo'lga qo'yildi, mintaqaga xalqaro hamjamiyat uchun ham ochildi. O'zbekiston mintaqaviy hamkorlikning yangi modelini taklif etdi. Bu model raqobat va “yetakchilik” uchun “poyga”dan voz kechib, ishonch va birlamlikka asoslanishdan iborat edi.

Shunday qilib, “do'stlik diplomatiyasi” yuzaga keldi. Bugun unga qo'shnilar ham amal qilmoqda. Markaziy Osiyo davlat

rahbarlarining maslahat uchrashuvlari formatida o'zbek tomonining salmoqli hisssasi bor. Shu asosda dunyoning yetakchi davlatlari ham o'zlarining muqobil formatlarini faol ravishda ilgari sura boshladi, masalan – “besh plyus”: AQSh, Rossiya, YEI va Yevropa davlatlari, Xitoy hamda boshqalar.

Bunday e'tibor shuni tasdiqlaydiki, O'zbekiston kuzatuvchilik ro'lini endi mintaqaviy yaqinlashuvning harakatlantiruvchi kuchiga aylandi. Va bu yangi rol, ya'ni mintaqa yuragidagi barqarorlik, hamkorlik va umumiy kelajak uchun mas'uliyat tufayli O'zbekiston e'tirofqa loyiq. 3 million kvadrat kilometrdan ham katta maydonda rasmiy Toshkent sha'niga, nafaqat o'zi uchun, balki qo'shnilar uchun ham tashabbus ko'rsatayotgan poytaxt sha'niga beqiyos hurmat ko'rsatilmoqda.

Qo'shnilar ham, uzoq xorijiy davlatlar ham allaqachon tushunib yetishdiki, yangi O'zbekistonning siyosati agressiv emas. Bu siyosat ustunlikka intilish siyosati ham emas. U pragmatizm siyosati bo'lib mukammal, muvozanatli va tizimli yondashuvdir. Uning asosida: “Avval ish bo'lsin, so'zlar keyin o'zi keladi”, degan tamoyil yotadi. Muhimi, bu siyosat haqida endi nafaqat Toshkentda, balki Nyu-Dehli, Pekin, Vashington, Moskva va Bryusseldagi gapirilmoqda.

Asosiy boylik – ochiqlik

Biz faqat beshta mamlakatning poytaxtini sanab chiqdik, xolos. Lekin iyun oyida O'zbekistonga bo'lgan chinakam ishonchni Yer sharining yarmi – deyarli yuzta davlat tan oldi. Aynan shuncha davlat vakillari to'rtinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumida qatnashdi. Ular ishonchni faqat so'zda ifoda etish bilan cheklanmadi. Balki amalda, ya'ni mamlakatimizga sarmoya kiritish, biz bilan hamkorlik qilib, bizdagi islohotlarga xayrixoh bo'lish istagini bildirdi.

“O'zbekiston Prezidenti shunday tamoyildan kelib chiqadiki, investitsiya – bu faqat pul emas, u – bilim, texnologiya, yangi vakolat va huquqlar. Xorijiy mablag'lar yordamida global ishlab chiqarish zanjirlariga integratsiyalashish, inson kapitalini rivojlantirish, mamlakatlar o'rtasida o'zaro munosabatlarni mustahkamlash uchun yo'l ochiladi. O'z navbatida, ular yangi O'zbekiston siyosatining asosiy maqsadlariga – insonning osoyishtaligi va farovonligiga erishishga, uning salohiyati ro'yobga chiqishiga yordam beradi.”

O'zbekiston poytaxtida muvaffaqiyatli o'tkazilgan investitsiya forumi ana shunday hamkorlikning ko'lami kengligini ko'rsatdi. Unga kelgan minglab qatnashchilar orasida davlatlar va hukumatlar rahbarlari, vazirlar, eng yirik xalqaro moliya tashkilotlari hamda korporatsiyalarning boshliqlari bor edi. O'zbekistonga nisbatan bunday katta qiziqish, albatta, ishonchsiz bo'lmaydi. Ishonch esa – natijasiz qolmaydi. O'zbekiston Prezidentining sermazmun, puxta o'ylangan va strategik jihatdan asoslangan nutqida nafaqat mamlakat rivojining parametrlari belgilab berildi. Balki unda davlat rahbari geosiyosiy jarayonlarni chuqur tahlil qilgan holda, beqaror hamda zaxiralarni taqchilligi sharoitida sarmoyadorlar qanday yo'l tutishi kerakligi bo'yicha aniq takliflarni bildirib, ochiq xalqaro muloqotga tayyor bo'lishga da'vat etish orqali O'zbekistonni global kontekstga kiritdi.

Jahon yalpi ichki mahsulotining o'sish sur'ati pasayib borayotgan, kelishmovchiliklar kuchaygan va global investitsiyaviy sharoit yomonlashgan bir sharoitda O'zbekiston noyob va qimmatli zaxirani taklif qilmoqdaki, u ham bo'lsa – barqarorlik, taraqqiyot, bashorat qilish imkoniyati. Aynan ana shu zaxira mamlakatimizni kapital va texnologiyalar uchun, xavfsiz, tinch muhitda rivojlanishni istaydigan odamlar uchun jozibador qilmoqda.

Biz transformatsiya jarayonlari qanchalik muvaffaqiyat bilan davom etayotganini oxirigacha anglay olmayapmiz. Bir necha yil avval O'zbekiston xalqaro investitsiyalar xaritasida zo'rg'a ko'rinadigan chekka davlat sifatida tasavvur qilinar edi. Bugun vaziyat tubdan o'zgardi. Masalan, 1-iyun holatiga O'zbekistonda xorijiy kapital ishtirokidagi 16 405 ta korxonaga ro'yxatdan o'tgan. Bu esa bir yil avvalgi

raqamga nisbatan 14,3 foizga ko'p. 2024-yil yakuni bilan mamlakatimiz to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi bo'yicha 2,8 milliard dollar ko'rsatkich bilan yetakchi o'rinni egalladi. Bunda biz huddudimizni kengaytirganimiz ham yo'q, yangi konlarni ochganimiz ham yo'q. Bunda mamlakatning o'zi o'zgardi. Uning yangicha modeliga esa Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilib, amalda ro'yobga chiqarilayotgan ochiqlik sababchi bo'ldi.

Tarixga nazar tashlasak, ochiqlik iqtisodiy yuksalishning sharti sifatida naqadar muhim ekan ayon bo'ladi. Xitoy o'tgan asrning 70-yillari oxiri – 80-yillari boshida “katta sakrash” va “madaniy inqilob”ning og'riqli oqibatlarini boshdan kechirdi. Den Syaopin natijaga erishish maqsadida turg'unlikdan voz kechib, islohotlar yo'lga o'tishni taklif etdi. Uning mashhur iborasi: *“Mushukning rangi qora bo'ladimi, oqmi – muhim emas, asosiysi – u sichqon ushlasin”*. Bu ibora pragmatizmning ramziga aylandi va Xitoy qisqa muddat ichida shiddat bilan rivojlana boshladi.

Bunday tajriba bizga ham tanish. Prezident Shavkat Mirziyoyev davlat tomonidan haddan tashqari nazorat o'rnatilgan tizimdek merosga duch kelar ekan, liberallashtirish yo'lga o'tdi: valyuta bozori ochiq bo'ldi, soliq yuki pasaytirildi, xususiylashtirish jarayoni jadallashtirildi. Bunda islohotlar bosqichma-bosqich, puxta o'ylangan va milliy sharoitlarga moslashtirilgan holda olib borildi.

O'zbekiston o'z eshiklarini jahonga ochdi: viza tartibi soddalashtirildi, xalqaro biznes uchun uzoq shart-sharoitlar yaratildi, sayyohlik sohasi rag'batlantirildi, qonunlar modernizatsiya qilindi, sarmoyadorlarni himoya qilish kuchaytirildi. Lekin muhimi, bu jarayonda strategik ahamiyatga ega sektor ustidan nazorat saqlab qolinadi, iqtisodiy siyosatning barqarorligi va suverenligi



Xosrova PAVLOVA onirch. e'tirof.

mumkin emasligini bilaman. Lekin sizlarning siyosatchilaringiz ayni paytda to'g'ri fikrlarni bildirmoqda. Va menga ma'lumki, to'g'ri qadamlar qo'yimoqda. O'zbekiston – boy tarixga ega mamlakat. Agar hozirgiday kurs saqlanib qolsa, muvaffaqiyatlar albatta takrorlanadi. Buning uchun sizlarda hamma kerakli narsa – mehnatkash odamlar, strategik jihatdan muhim bo'lgan jug'rofiy joylashuv, tabiiy resurslar mavjud, – dedi xalqaro investor, “Beeland Interests, Inc.” kompaniyasi raisi Jim Rojers.

Toshkent forumining qatnashchilari bir fikrda yakdil: O'zbekistonning investitsiyaviy jozibadorligi ortib bormoqda. Ular o'z bashoratlarni moliyaviy jihatdan ham tasdiqlashdi, ya'ni o'zbek tomoni bilan 30 milliard dollardan ortiq qiymatga baholangan bitimlar imzolandi. Bu raqam ortida muhim bir xulosa bor – aniq qarorlar va mablag'da ifodalangan ishonchning tasdiqi shundan dalolat beradiki, O'zbekiston Prezidenti olib borayotgan pragmatik siyosat nafaqat o'z vaqtida yuritilmoqda, balki hozirgi, ko'plab mamlakatlar “turbulent” holatga tushib qolgan bir sharoitda strategik jihatdan judayam to'g'ri bo'lmoqda.

Vazmin yondashuv ta'siri

Xalqaro siyosat va global tendensiyalar haqida so'z ketsa, biz ko'pincha muhim bir haqiqatni ko'zdan qochiramiz: mamlakatning barqaror o'sishi ichki yangilanishlarsiz mumkin bo'lmaydi, bunda yangilanish nafaqat iqtisodiy ko'rsatkichlarda yoki diplomatik tashabbuslarda ifodalanadi – balki haqiqiy o'sish kompleks tarzda rivojlanishda namoyon bo'ladi.

Yangi O'zbekiston bugun ko'pchilikning

“Jahon yalpi ichki mahsulotining o'sish sur'ati pasayib borayotgan, kelishmovchiliklar kuchaygan va global investitsiyaviy sharoit yomonlashgan bir sharoitda O'zbekiston noyob va qimmatli zaxirani taklif qilmoqdaki, u ham bo'lsa – barqarorlik, taraqqiyot, bashorat qilish imkoniyati. Aynan ana shu zaxira mamlakatimizni kapital va texnologiyalar uchun, xavfsiz, tinch muhitda rivojlanishni istaydigan odamlar uchun jozibador qilmoqda.”

nigohida. Mamlakatimiz haqida ko'p yuzlashmoqda va bu yerga tez-tez tashrif buyurishyapti. Keluvchilar esa siyosat, iqtisodiyot, xalqaro munosabatlarda yuz berayotgan o'zgarishlarga guvoh bo'lishni istaydi. Lekin amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, xalqaro hamjamiyatning mamlakatga chinakam ishonchi nafaqat muzokaralarda, balki boshqa – ilmiy va gumanitar sohalarda ham shakllanadi. Davlat taraqqiyotining darajasi kreativ industriyadan tortib, sportgacha bo'lgan “yumshoq” yo'nalishlarda o'zini qanday namoyon etayotganida ham ko'rinadi. O'zbekiston bunda ham o'z qiyofasini baralla ko'rsatadi.

Yaqinda futbol maydonida ro'y bergan katta voqea kuchli hayajonga sabab, xalqaro OAVdagi muhokamaga mavzu

bo'ldi, asosiysi, mamlakatimiz ichkarisida ulkan faxr-iftixor uyg'otdi. O'zbekiston milliy terma jamoasi tarixda ilk bor saralash o'yinlarida muvaffaqiyatli ishtirok etib, jahon chempionati yo'llanmasini qo'lga kiritdi. Aynan O'zbekiston futbolchilari Markaziy Osiyodan birinchi bo'lib va yagona jamoa sifatida mundialda o'ynaydigan bo'ldi.

Millionlab ishqibozlar uchun ushbu daqiqalar uzoq kutilgandi. Ilgari o'nyilliklar davomida O'zbekiston saralash turnirlarida ko'p marta qatnashgan, ammo har safar nimadir yetishmasdi.

G'alabalar tasodifiy bo'lmaydi. Ularga mustahkam zamin tayyorlanishi kerak. Va bu zamin, poydevor bir-ikki yilgina avval qo'yilgan emas: futbol sohasi bosqichma-bosqich, davlat ko'magi bilan va uzoq muddatli rejallashtirish orqali rivojlanib bordi. Prezidentimizning futbol infratuzilmasi, akademiyani qo'llab-quvvatlash, yosh iste'dodlar uchun sharoit yaratish bo'yicha qabul qilgan qarorlari o'zining hal etuvchi rolini ko'rsatdi.

Xususan, 2024-yilda mamlakatimiz sport xronikasi yorqin sarlavhalar bilan to'lib bordi. Avvaliga, 23 yoshgacha bo'lgan terma jamoamiz tarixda ilk bor Olimpiya o'yinlarida qatnashdi. Joriy yil bahorida 17 yoshgacha bo'lgan futbolchilarimiz Osiyo kubogini qo'lga kiritib, jahon chempionatiga yo'llanma oldi. Mana, endi esa – milliy terma jamoamizning ulkan yutug'i avvalgi muvaffaqiyatlarning mantiqiy davomi bo'ldi.

O'zbek sportchilarining muvaffaqiyati haqida butun jahonda gapira boshlashdi. Tabriklar faqat rasmiy shaxslar va sport tahlilchilaridan emas, balki xalqaro futbol funksionerlaridan

ham keldi. Jumladan, Futbol asotsiatsiyalari xalqaro federatsiyasi (FIFA) rahbari Janni Infantino Prezident Shavkat Mirziyoyev nomiga maktub yo'lladi. Unda aytilishicha, O'zbekiston o'z tarixida ilk bor FIFA jahon chempionatiga chiqib, Osiyoda birinchi bo'lib “JCH – 2026” yo'llanmasini qo'lga kiritgan terma jamoalardan biriga aylandi.

Bunday ajoyib yutuq ushbu muvaffaqiyatga aloqador bo'lgan barchaning birgalikdagi sa'y-harakatlari va qat'iy irodasi tufayli amalga oshdi, – deya ta'kidladi u.

“The Times of Central Asia” nashri esa: “34 yoshli mamlakat birinchi marta jahon chempionatining finaliga chiqdi va bu g'alaba sari yo'l oson

bo'lmadi”, deb yozdi. O'sha maqolada O'zbekiston Prezidentining taqabidan quyidagi iqtibos ham keltirildi: *“Milliy sportimiz solnomasiga oltin harflar bilan bitiladigan bunday yorqin natija yurtimizdagi millionlab futbol muxlisari, butun xalqimizning necha yillik orzusi edi”*.

Birinchi marta jahon futbol arenasiga chiqqan O'zbekiston xalqaro hamjamiyatning diqqat markazida bo'lib turibdi va bu jamoaning o'yinini kuzatish juda qiziq, – deb e'tirof etdi Germaniya sport sharhlovchilari.

Mamlakatimizning futbol maydonidagi yutug'i umumiy manzaraning yorqin bir qismi bo'ldi. Chunki sport xuddi davlat boshqaruvi va xalqaro munosabatlarda singari, strategik tafakkur, chidamlilik va bir necha yil oldindan fikrlash qobiliyatini talab qiladi. Futbolidagi g'alaba tasodif emas, balki jamiyat hayotining har qaysi sohasi kabi muhim bo'lgan oqilona siyosatning natijasidir.

Qaysiki mamlakat dunyo sahnida muvaffaqiyatga erishar ekan, demak, o'sha yerda iste'dod, mehnat va g'alabaga intilish qo'llab-quvvatlanadi, barcha shonaning rivojlanishi uchun qulay sharoitlar yaratilgan. Va tanlangan taraqqiyot yo'li – to'g'ri, oqilona va uzoq muddatli.

Bugungi kunda sayyoramiz qarama-qarshiliklar girdobida muvozanatga erishishga harakat qilayotgan ekan, O'zbekiston ana shunday oqilona yo'lni tanladi. Bu vazmin yondashuv va pragmatizm yo'lidir. Negaki, dunyoda hamma baland ovozda gapirishga intilar ekan, bunday sharoitda astasekin, ammo ishonch bilan harakat qila oladiganlar yutadi. O'zbekistonda tinchlik hukmron, bu yerda yetakchining so'zlari aniq xatti-harakatlar bilan quvvatlanadi. Aynan shu – bugun dunyo ochiq tan olayotgan, mintaqamizda tinchlik-totuvlikning barqarorligiga, mamlakatimizda taraqqiyot va farovonlikka xizmat qilayotgan pragmatizm siyosatidir.

Asriy orzulari ushalib elning, O'zligin qaddini ko'tardi bardam. Manzili porloqdir bu yangi yo'lning, Shijoat, shashti zo'r, odimlar shaxdam. Dillar ham shodlikdan to'lar ekan-ku, Nurafshon kunlar ham kelar ekan-ku!

Bu damlar o'zidan bo'lmadi paydo, Armonlar birma-bir yechmoqda tugun. Qadri ham yuksalib kundan-kun hatto, Bonyodkor elimiz shod, omon bu kun. Bobolar, momolar bilar ekan-ku, Nurafshon kunlar ham kelar ekan-ku!

Tenglarining ichida tengdir jon Vatan, Ilim-fan bobida hech kimdan kammam. Kelajak umidi farzandlar ekan, Uning mash'alasi hech qachon so'nmas. Baxt kulib, boshini silar ekan-ku, Nurafshon kunlar ham kelar ekan-ku!

Yurtboshim mehri bu, e'tibori bu, Har qallda uyg'otgan g'ayrat, shijoat. Vatanga muhabbat abadiy tuyg'u, Oldinga intilmoq chog'idir faqat! Orzular vaqt kelib gullar ekan-ku, Nurafshon kunlar ham kelar ekan-ku!

O'tkir RAHMAT.

Keyingi yildan e'tiboran iqtidorli boshqaruvchilar va liderlarni, yangi avlod rahbarlarini aniqlash hamda tanlash bo'yicha “TOP – 100” dasturi joriy etiladi.

BMT forumi:

XALQARO HAMKORLIKNI MUSTAHKAMLASH UCHUN MUHIM PLATFORMA

Samarqand shahrida ilk bor BMTning "2030-yilga qadar 5 yil: Barqaror kelajak uchun xizmat ko'rsatish jarayonlarini jadallashtirish" mavzuida Davlat xizmati bo'yicha forumi o'z ishini boshladi.



rag'batlantirish, davlat xizmatlarini ko'rsatishning innovatsion yechimlarini qo'llash, davlat sektori institutlarida samaradorlikni keskin oshirish, liderlik boshqaruv uslubini rivojlantirish, uzluksiz ta'lim olishni kengaytirish va bo'lajak rahbarlar uchun zarur ko'nikmalarni belgilash bo'yicha ilg'or tajriba almashish masalalariga katta ahamiyat qaratilgan, - dedi Sh. Shermatov. - Mamlakatimizda "Raqamli hukumat" idoralari integratsiya platformasi orqali 49 ta davlat organining 390 dan ortiq veb-xizmatlari amalga oshirilmoqda. Ularga har kuni 216 dan ortiq axborot tizimlari ulanadi. Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) orqali fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari 760 dan ortiq elektron xizmatlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lib, ro'yxatdan o'tgan foydalanuvchilar soni 11 milliondan oshdi. Biz 2030-yilgacha raqamli texnologiyalar eksportini 5 milliard AQSH dollariga

yetkazishni maqsad qilganmiz. Joriy yilda bu ko'rsatkich 1 milliard dollardan oshishi kutilmoqda. Anjuman ishtirokchilari shu balarda o'z ishini davom ettirdi. Uch kun davomida bir qator mavzular yuzasidan ma'ruzalar o'qiladi va muhokama qilinadi. Forum qatnashchilari tomonidan davlat xizmatlarining sifati, shaffofligi va aholi uchun ochiqligini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Shuningdek, forumda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash, ayniqsa, rivojlanayotgan davlatlar o'rtasida tajriba almashish hamda davlat xizmatlaridan teng va adolatli foydalanishni rag'batlantirishga qaratilgan Samarqand vazirlar deklaratsiyasi muhokama qilinishi ham ko'zda tutilgan.

Abdulaziz YO'LDOSHEV ("Xalq so'zi").

Anjuman

Ushbu global ahamiyatga ega tadbirda Yevropa, Osiyo, Lotin Amerikasi va Afrika mamlakatlaridan vazirlar, shuningdek, davlat xizmatiga mas'ul rahbarlar, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar, ilmiy doiralar, fuqarolik jamiyati, xususiy sektor vakillari ishtirok etmoqda.

Anjumaning ochilish marosimida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning forum qatnashchilariga tabrigi o'qib eshittirildi. BMTning Iqtisodiy va ijtimoiy masalalar departamenti iqtisodiy rivojlanish bo'yicha bosh kotibi yordamchisi Navid Hanif, Malayziya Bosh vaziri o'rinbosari Fadilloh Yusuf so'zga chiqib, anjuman ishiga muvaffaqiyat tiladi.

O'zbekiston Respublikasi raqamli texnologiyalar vaziri Sherzod Shermatov forumning Samarqand deklaratsiyasi haqida ma'lumot berdi. U raqamli transformatsiya, innovatsiya va yangi texnologiyalar, ishonchli davlat boshqaruvi, inkluzivlik hamda texnologiya, kibernetika kabi yetti maqsaddan iboratini qayd etdi.

Prezidentimizning tabrigida davlat boshqaruvida raqamli transformatsiyani

BARQAROR KELAJAKKA DADIL QADAM

23 - 25-iyun kunlari Samarqand shahrida yana bir yirik va global ahamiyatga ega tadbir - Birlashgan Millatlar Tashkilotining Davlat xizmati bo'yicha forumi bo'lib o'tmoqda. Bunday nufuzli anjumaning O'zbekistonda o'tkazilayotgani mamlakatimiz uchun qator imkoniyatlar eshigini ochishi bilan ahamiyatlidir.

Munosabat



Forumning mavzusi - "2030-yilga qadar 5 yil: Barqaror kelajak uchun xizmat ko'rsatish jarayonlarini jadallashtirish" deb nomlanib, u BMTning Iqtisodiy va ijtimoiy masalalar departamenti (UN DESA) va O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan tashkil etildi.

Davlat xizmatlarini samarali tashkil etish, innovatsiyalarni joriy qilish va Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish yo'lida davlatlar, xalqaro tashkilotlar, fuqarolik jamiyati vakillari birlashtirilgan anjuman mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarni jahon hamjamiyatiga namoyish etish va soha ekspertlaridan xolis baho olish imkonini ham beradi.

O'zbekistonda 2017-yilda boshlangan tub islohotlar davlat xizmatlari tizimida ham ijro bo'yicha o'zgarishlarga yo'l ochdi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan davlat fuqarolik xizmati transformatsiya qilindi. "Xalq davlat idoralari emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak", degan hayotiy tamoyildan kelib chiqib, Prezidentning virtual qabulxonasi, Xalq qabulxonalari tashkil etildi. Yangi tuzilma - "mahalla yettilligi" tizimi yo'lga qo'yildi.

Davlat xizmatini natijadorlikka yo'naltirish maqsadida ijro etuvchi hokimiyat organlari, jumladan, boshqaruv xodimlari 30 foiz qisqartirildi, 30 ga yaqin turdagi litsenziya va ruxsatnomalar bekor qilindi. 70 dan ziyod davlat xizmatlari soddalashtirildi, davlat tashkilotlari tomonidan 60 dan ortiq hujjatlarni talab etish tugatildi.

"Elektron hukumat" tizimining foydalanuvchilari soni 4 milliondan oshib, u orqali davlat idoralari 130 dan ortiq axborot resurslaridan foydalanish imkoniyatlari yaratildi. Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida qariyb 350 turdagi xizmatlar onlayn shaklda ko'rsatilishi yo'lga qo'yildi. 2023-yil 1-yanvardan boshlab mustaqil faoliyat yurituvchi respublika ijroiya organlari soni 61 tadan 28 taga, jumladan, vazirliklari soni 25 tadan 21 taga qisqartirildi. Asosiy, O'zbekiston ushbu sohadagi islohotlarni davom ettirish yo'lida sobitqadam.

2019-yil 3-oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tashkil etildi. Agentlik davlat organlari va tashkilotlarida inson resurslarini

boshqarish hamda rivojlantirish sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirishga mas'ul organ etib belgilandi. Agentlik zimmasiga professional davlat xizmatchilari korpusini shakllantirish, kadrlar bilan ishlashning innovatsion usullarini joriy etish, kadrlar tarkibining soni va sifat xususiyatlarini yaxshilash kabi qator vazifalar yuklatildi.

Uch yil oldin 2022-yil 8-avgustda imzolangan "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonun sohadagi ko'pgina muammolarning huquqiy yechimini berdi. Kadrlar siyosatiga oid 160 ga yaqin normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Davlat xizmatchilari faoliyati samaradorligini baholash tizimi joriy etildi. Davlat xizmatidagi vakant lavozimlarni ochiq tanlov orqali egallash tizimi amaliyotda qo'llanila boshlandi. Yuqori rahbarlik lavozimlariga zarira tayyorlash tizimi yaratildi.

Yurtboshimiz faoliyatining ilk kunidan boshlab O'zbekistonda davlat idoralari ishni tashkil etish va davlat xizmatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Sohada kadrlar bilan bog'liq qator tizimli muammolar mavjudligi yuqori minbarlardan aytildi. Davlat xizmatini zamonaviy standartlar asosida tashkil etish hamda bugungi talablarga moslashtirish vazifasi kun tartibidan o'rin egalladi.

"Davlat - xalq xizmatchisi" tamoyili aholini tinglashni, uning muammolarini tushunishni va ehtiyojlarini maksimal darajada qondirishni nazarda tutadi. "Inson qadri uchun, inson baxti uchun, inson roziligi uchun!" tamoyili mamlakat Konstitutsiyasida, qonunlarida va davlat idoralari faoliyatida bosh mezon bo'lishi shartligi O'zbekiston yetakchisi qat'iy talabiga aylandi.

O'zbekistonning boshqaruvdagi yana bir ijroiy natijasi - Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan "davlat - jamiyat", "rahbar - fuqaro" munosabatlari yangi shakli yuzaga keldi. Maqsad - rahbarlarni xalq bilan yuzlashtirish, mansabdorlar bilan fuqarolarni bir-biriga yaqinlashtirish, joylardagi muammolarni sinchkovlik bilan o'rganish asosida xalqchil qarorlar qabul qilishdir.

Demak, BMTning Davlat xizmati bo'yicha forumining O'zbekistonda bo'lib o'tishiga asoslar bor. Birinchidan, mamlakatimizdagi barqarorlik va islohotlar yo'li dunyo e'tiboriga tushdi. Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida amalga oshirilayotgan keng ko'lami o'zgarishlar, jumladan, davlat boshqaruvi isloh qilish, korrupsiyaga qarshi kurashish,



tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy sohani rivojlantirish jarayonlari xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilayotir. Bunday siyosiy barqarorlik va islohotlarga sodiqlik O'zbekistonni xalqaro tadbirlar uchun ishonchli va qulay maydonga aylantirdi.

Ikkinchidan, Markaziy Osiyoning qoq markazida joylashgan O'zbekiston mintaqaviy siyosatda muhim rol o'ynayapti. Markaziy Osiyodagi yetakchilik, mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan sa'y-harakatlar va qo'shni davlatlar bilan do'stona munosabatlari O'zbekistonni xalqaro tadbirlar uchun strategik joyga aylantirdi, desak, ayni haqiqat.

Uchinchidan, O'zbekiston BMTdek xalqaro nufuzli tashkilot bilan faol hamkorlik qiladi. Xalqaro hamjamiyat bilan konstruktiv munosabatlar, BMTning maqsad va vazifalariga sodiqlik O'zbekistonni forum uchun munosib nomzodga aylantirdi.

To'rtinchidan, O'zbekistonning tarixiy-madaniy merosi va sayyohlik salohiyati beqiyos. Samarqand - jahon sivilizatsiyasining beshiklaridan biri. Ushbu shaharning boy tarixiy merosi, madaniy obidalari va sayyohlik salohiyati forum ishtirokchilari uchun qiziqarli va unutilmas taassurotlar qoldirdi. Shuningdek, O'zbekiston hukumati turizmni rivojlantirishga qaratilgan sa'y-harakatlari ham forumning muvaffaqiyatli o'tishiga xizmat qiladi.

Beshinchidan, O'zbekiston xalqaro maydonda ilg'or tashabbuslar bilan chiqmoqda. Global muammolarni hal etishga qaratilgan takliflar, mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga ega anjumanlar o'tkazish tajribasi mamlakatimizning xalqaro tadbirlarni o'tkazishga tayyor ekanini ko'rsatadi. Hech shubhasiz, BMTning Davlat xizmati bo'yicha forumining

Forum davlat xizmati sohasidagi eng muhim xalqaro tadbirlardan biri hisoblanadi. U har yili BMT tomonidan tashkil etilib, dunyoning turli mamlakatlaridan davlat xizmatchilari, siyosatchilar, olimlar va ekspertlari bir joyga jamlaydi. Shu nuqtayi nazardan, davlat xizmatining jamiyat va iqtisodiyot uchun muhimligini ta'kidlash, uning nufuzini oshirish va yoshlarni bu sohaga jalb qilish, ilg'or tajribalarni almashishga, xususan, turli mamlakatlarning davlat xizmati sohasidagi eng yaxshi tajribalarini o'rganish, innovatsion yondashuvlarni qo'llash va rivojlantirishga ko'maklashadi. U soha vakillari uchun tajriba almashish va yangi bilimlar olish imkoniyatini yaratadi. Davlat xizmatini rivojlantirish va aholiga sifatlilik xizmat ko'rsatishni ta'minlashga qaratilgan global sa'y-harakatlarga muhim hissa qo'shadi.

Forum yakunida qabul qilinadigan hujjatlar (deklaratsiyalar, rezolyutsiyalar va boshqalar) davlat xizmati sohasini rivojlantirish bo'yicha keyingi harakatlar uchun asos bo'ladi.

Baxtiyor RASULOV, Andijon davlat pedagogika instituti rektori, tarix fanlari doktori, professor.

O'zbekiston - Mo'g'uliston:

TARIXIY YAQINLIK VA STRATEGIK MANFAATLARGA ASOSLANGAN MULOQOT

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 24-25-iyun kunlari davlat tashrifi bilan Mo'g'ulistonda bo'ladi. O'zbekiston va Mo'g'uliston o'rtasida diplomatik munosabatlar 1992-yil 25-yanvarda o'rnatilgan. Shundan buyon ikki tomonlama muloqot izchil rivojlanib, do'stlik rishtalari, siyosiy hamjihatlikni mustahkamlash va ko'p tomonlama hamkorlikni kengaytirishdan o'zaro manfaatdor ekanini namoyon etmoqda.

Tashrif oldidan

O'tgan yillar davomida tomonlar suverenitetni hurmat qilish va o'zaro tenglik asosidagi barqaror munosabatlarni o'rnatdi.

So'nggi yillarda O'zbekiston - Mo'g'uliston siyosiy muloqotining faollashgani kuzatilyapti. Mo'g'uliston Prezidenti Uxnaagiyun Xurelsux 2022-yilda SHHT Samarqand sammitidagi ishtiroki doirasida O'zbekistonga tashrif buyurdi. O'zbekiston va Mo'g'uliston yetakchilari 2023-yil 1-dekabr kuni Dubay shahrida bo'lib o'tgan BMTning iqlim o'zgarishi bo'yicha konferensiyasi doirasida ham uchrashdi.

Mo'g'uliston Prezidenti Uxnaagiyun Xurelsuxning 2024-yil 23 - 26-iyun kunlari O'zbekistonga ilk davlat tashrifi alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Ikki mamlakat rahbarlarining samarali muzokaralari yakunlari bo'yicha Davlatlararo munosabatlar va hamkorlik to'g'risidagi Qo'shma bayonot, shuningdek, 14 ta hukumatlararo va boshqa hujjatlar imzolandi.

"Mo'g'uliston biz uchun Osiyo mintaqasidagi an'anaviy va ishonchli hamkoridir. O'zbekiston - Mo'g'uliston munosabatlari do'stlik, o'zaro hurmat va qo'llab-quvvatlash tamoyillariga asoslangan bo'lib, konyunkturaga bog'liq emas", dedi O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashrif doirasidagi tadbirlar chog'ida.

Bunday asos hukumatlar, parlamentlar va vazirliklar darajasidagi ikki tomonlama aloqalarni mustahkamlash uchun mustahkam poydevor bo'lib, mamlakatlarni bir-biriga yaqinlashtirish va hamkorlik sohalarni kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Shu tariqa O'zbekiston Oliy Majlisi va Mo'g'uliston Davlat Buyuk Xuralida faoliyat yuritayotgan parlamentlararo do'stlik guruhlari faol tashriflar almashinuvi bilan ajralib turadigan konstruktiv muloqotni yo'lga qo'ydi.

Idoralararo hamkorlik mexanizmlari samarali ishlamoqda. Tashqi ishlar vazirliklari o'rtasidagi siyosiy maslahatlashuvlar ikki tomonlama va xalqaro kun tartibidagi masalalar bo'yicha o'zaro anglashtirish mustahkamlash, xalqaro tashkilotlar doirasida yondashuvlarni muvofiqlashtirish, shuningdek, turli sohalarda hamkorlikni kengaytirish uchun barqaror huquqiy va institutsional asosni shakllantirishga xizmat qilayapti.

Bugungi kunga qadar ikki mamlakat tashqi siyosat idoralari o'rtasidagi siyosiy maslahatlashuvlar 7 ta davrasi bo'lib o'tdi. So'nggi siyosiy maslahatlashuvlar 2024-yil 7-may kuni Ulan-Batorda tashkil etildi.

Ikki tomonlama hamkorlikni kengaytirishda diplomatik vakolatxonalar faoliyati ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekistonning Pekindagi elchixonasi bir vaqtning o'zida Mo'g'ulistonda ham akkreditatsiyadan o'tgan.

2024-yil 24-iyun kuni Prezident Uxnaagiyun Xurelsuxning O'zbekistonga tashrifi doirasida Mo'g'ulistonning Toshkentdagi elchixonasining rasmiy ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Ushbu diplomatik kanallar ikki tomonlama tashriflar tashkil etish, siyosiy maslahatlashuvlar va turli sohalardagi bitimlar loyihalarni tayyorlashga yaqindan ko'maklashayapti.

O'zbekiston va Mo'g'uliston an'anaviy tarzda xalqaro maydonda bir-birini faol qo'llab-quvvatlab kelmoqda. Bu, ayniqsa, BMT, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, Shanxay hamkorlik tashkiloti (Mo'g'uliston kuzatuvchi maqomiga ega), shuningdek, ikki davlat Sharq va G'arb o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash imkoniyatlarini ko'rsatayotgan Osiyo-Yevropa muloqoti (ASEM) kabi tashkilotlar doirasida ko'zga yaqqol tashlanadi.

Mo'g'uliston O'zbekistonning Markaziy Osiyoda barqaror rivojlanish, mintaqaviy barqarorlikni ta'minlash va aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan xalqaro maydondagi tashabbuslarini bir necha bor diplomatik qo'llab-quvvatlab kelgan. O'z navbatida, O'zbekiston Mo'g'ulistonning barqaror energiya yechimlarini ilgari surish, atrof-muhitni muhofaza qilish va cho'l ekotizimlarini saqlash borasidagi sa'y-harakatlarini e'tirof etgan.

Mo'g'ulistonning muhim geografik va iqtisodiy mavqega ega bo'lgan Markaziy Osiyo bilan hamkorlikka qiziqishi ortib borayotgani sir emas. O'zbekiston, o'z navbatida, Mo'g'ulistonning Shimoli-sharqiy Osiyo bilan siyosiy va iqtisodiy aloqalarni kengaytirishda muhim sherik sifatida biladi.

O'zbekiston va Mo'g'uliston o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlik hali o'zining to'liq salohiyatini namoyon etgani yo'q, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Eng asosiy, har ikki tomon ham uni faollashtirishdan manfaatdor. Mo'g'uliston O'zbekistonga mintaqadagi muhim savdo-iqtisodiy sherik sifatida qaraydi. O'zaro tovar ayirboshlash ko'rsatkichlari barqaror o'sib bormoqda, bu natija har yili o'rtacha 30 foizga oshayotgani shundan dalolat beradi.

Har ikki davlat ham muhim xomashyo, energetika va qishloq xo'jaligi sohasidagi yuqori salohiyatga ega va mamlakatlarimiz iqtisodiyoti bir-birini to'ldiruvchi bo'lishi mumkin. Energetika, jumladan, qayta tiklanadigan energiya manbalari va energiya tayjandigan texnologiyalar yo'nalishida hamkorlik, ayniqsa, istiqbolli deb hisoblanadi. Bugungi kunda O'zbekistonda ushbu mamlakat

bilan savdo va xizmat ko'rsatish sohalari 17 ta qo'shma korxonalar tashkil etilgan. Ularning 12 tasi 100 foiz Mo'g'uliston kapitali bilan faoliyat yuritayapti.

Tomonlar qo'shma korxonalar tashkil etish, savdo missiyalarini rivojlantirish, yarmarkalar, biznes-forumlar va investitsiyaviy konferensiyalarda qatnashish imkoniyatlarini doimiy tarzda ko'rib chiqyapti. 2024-yil iyun oyida Mo'g'uliston va O'zbekistonda savdo uylarining ochilishi, ikki davlat po'yxatlarida sanoat ko'rgazmalari o'tkazilishi e'lon qilindi. Ayrim turdagi tovarlar bilan Imtiyozli savdo to'g'risidagi bitimni tayyorlash yuzasidan erishilgan kelishuv va bozorga kirishni osonlashtirish bo'yicha takliflar savdo-iqtisodiy sheriklikni chuqurlashtirishga qo'shimcha turki bo'ladi.

2024-yilning 24-iyun kuni Toshkent shahrida Prezident Uxnaagiyun Xurelsuxning O'zbekistonga davlat tashrifi doirasida ikki mamlakat rahbarlari ishbilarmon doiralari vakillari bilan uchrashuv o'tkazdi.

"Biz mavjud salohiyat va imkoniyatlardan deyarli foydalanmayotganimizni ta'kidladik. Shu munosabat bilan yaqin yillarda o'zaro savdoni, eng avvalo, xaridorig mahsulotlar nomenklaturasi va hajmini kengaytirish orqali karrasiga oshirish vazifasini qo'ydik", dedi O'zbekiston Prezidenti uchrashuvda.

Mo'g'uliston delegatsiyalarining O'zbekistonda an'anaviy Toshkent xalqaro investitsiya forumi va boshqa ishbilarmonik tadbirlarida ishtirok etishi bu boradagi ijobiy qadam bo'ladi.

O'zbekiston va Mo'g'uliston o'rtasidagi madaniy-gumanitar hamkorlik chuqur tarixiy rishtalarga asoslanadi. Turkiy va mo'g'ul xalqlari asrlar davomida Markaziy Yevrosiyo dashtlaridan vujudga kelgan yagona etnik-madaniy va geosiyosiy makonda yashab kelgan. Bu xalqlarni ko'chmanchi madaniyatning umumiy namunalarini, o'xshash ijtimoiy tuzilmalar, lisoniy va filologik unsurlar, an'analar, tarix va tabiatga chuqur hurmat birlashtirib turadi.

Hozirgi O'zbekiston va Mo'g'uliston hududida vujudga kelgan buyuk sulolalar - Hunlar davlatidan Chingizxon va temuriylargacha bo'lgan davr nafaqat Yevrosiyo tarixiy taqdirini belgilab berdi, balki bir-biriga ma'muriy madaniyat, san'at, diplomatiya, harbiy strategiya bo'yicha bilimlarni uzatdi.

O'zbekiston va Mo'g'uliston Sharqning eng muhim madaniy va ilmiy an'analari - Buyuk Ipak yo'lidan tortib, yozma va ma'naviy yodgorliklar egalari. Mo'g'ulistonda Markaziy Osiyo xalqlari tarixi va madaniyatiga oid ko'plab qadimiy yozma manbalari mavjud. Ular O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik va qo'lyozmalar institutlarida qiziqish uyg'otmoqda. Arxeologiya, muzey ishi, restavratsiya va turizm sohasidagi hamkorlik qo'shma loyihalar, ilmiy ekspeditsiyalar, ko'rgazmalar va ta'lim dasturlari uchun yangi imkoniyatlar ochadi.

Xususan, 2023-yil oktyabr oyida Jaloliddin Manguberdi jamg'armasi vakillari turkiy tillar, jumladan, o'zbek tilining o'zagi bo'lgan O'rxun-Enasoy bitiklari bilan bog'liq videomateriallar tayyorlash maqsadida ilmiy-amaliy safar bilan Mo'g'ulistonga bordi.

Bugungi kunda ikkala tomon ham talabalar almashinuvi, akademik aloqalar, tarix, til va madaniyatni o'rganish bo'yicha dasturlarni rivojlantirmoqda. Turkologiya va sharqshunoslik markazlarini rivojlantirish istiqbolli yo'nalish bo'lib, Mo'g'uliston va O'zbekiston tajribasi ilm-fan va ta'lim sohalari o'zaro boyliqayapti.

Bundan tashqari, milliy madaniyat tashkilotlari ko'magida Madaniyat kunlari, gastrol safarlari, kinofestivallar, anjumanlar, ijodiy forumlar mintaqam o'tkazilyapti va ular gumanitar muloqotlar asosini tashkil etayotir.

2024-yil iyun oyida Toshkentda O'zbekiston davlat akademik qal' cholg'u asboblari orkestri va Mo'g'uliston filarmonik orkestrining "Morin Xuur" qo'shma konserti bo'lib o'tdi. Mazkur mo'g'ul musiqiy guruhi II Xalqaro maqom san'ati forumida ham ishtirok etdi.

O'z navbatida, o'tgan yilning noyabr oyida Mo'g'uliston Madaniyat vazirligi ko'magida Mo'g'uliston filarmoniyasi o'zbek xalqining ma'naviy-madaniy merosi taqdimoti tashkil qilindi. Muxtasar aytganda, O'zbekiston va Mo'g'uliston o'rtasidagi munosabatlar hurmat, o'zaro manfaatdorlik va tarixiy yaqinlikka asoslangan. Har ikki davlat ham ikki tomonlama, ham ko'p tomonlama shakllarda yanada faol hamkorlikka intilishlarini namoyish etmoqda. O'zbekiston va Mo'g'uliston siyosiy iroda, mustahkamlangan iqtisodiy hamda gumanitar aloqalar bilan ikki tomonlama sheriklikni Markaziy va Sharqiy Osiyodagi barqaror hamda o'zaro manfaatli tarzda rivojlantirishga qaratilgan aylanishga qodir.

Shu nuqtayi nazardan, Prezident Shavkat Mirziyoyevning Mo'g'ulistonga bo'lajak davlat tashrifi bu jarayonga kuchli sur'at bag'ishlab, mamlakatlarimiz xalqlari o'rtasidagi tarixiy do'stlik rishtalarini mustahkamlash va o'zbek mo'g'ul hamkorligi tarixida yangi sahifa ochishi, shubhasiz.

"Dunyoo" AA.

Joriy yil sentyabr oyidan Mo'g'uliston aviakompaniyasi Ulan-Batordan Toshkentga to'g'ridan-to'g'ri havvo qatnovlarini yo'lga qo'yishni rejalashtirmoqda.

Aks sado

SHIDDATLI O'ZGARISHLARGA YUZ BURAYOTGAN DIYOR

Bugun dunyo murakkab, tahlikali davrni boshdan kechiryapti. Juda ko'p mamlakatlarda sarosima davom etayotgan bir paytda biz oldimizdagi mashaqqatlarni hamijhatlikda yengib o'tyapmiz. Ba'zan aqlni shoshirib qo'yadigan darajadagi bunyodkorlik bilan barcha sohani qamrab olishga qanday ulgurypmiz, deb o'ylab qolaman. Va davlat rahbari bilan bitta poyezdda Qarshidan Shahrisabzga borish jarayonida bu savollarga javob topganday bo'ldim...

Yo'l davomida Prezident bir zum bo'lsa-da tin olgani yo'q. Deylik, G'uzor tumani hududidan o'ta turib, tegishli vazirliklarga yo'llarni kengaytirish, temir yo'l atrofini obodonlashtirish bo'yicha topshiriqlar berdi. Qashqadaryoning yana qaysi tumaniga temir yo'l kerak, deb nuroniylardan fikr so'radi. Xonadonlarga quyosh panellarini o'rnatish, uning oila iqtisodiyotiga foydasi haqida tushuntirish ishlari olib borish, bunday zamonaviy uskunalarini kam ta'minlangan oilalar uylariga homiylik yordamida o'rnatish orqali ularni qo'llab-quvvatlash bo'yicha aniq vazifalar aytiladi.

Yurtboshimiz har bir oila, har bir fuqaroning hayotdan rozi bo'lishi uchun qayg'urmoqda. Davlat rahbarining ana shu e'tibori, yurt tinchligi uchun kecha-kunduz qayg'urishi, o'z farog'atidan kechishi tufayli ham keyingi yillar mislsiz islohotlar davri bo'ldi. Juda ko'p narsa yangilanayotganini, yurtimiz

haqida gapirganda odamlar qoloq, "qush uchsa, qanoti, odam yursa, oyog'i kuyadigan" hududni tasavvur etishar edi. Bugungi shiddatli islohotlarning natijasida butun respublikaga andoza bo'ladigan shaharcha bunyod etildi. 120 kilometr suv, 210 km. elektr tarmog'i tortilib, zarur infratuzilma yaratildi. Yo'llar kengaytirilib, ta'mirlandi. Ma'muriy binolar, 19 ta maktab, 22 ta bog'cha, ko'p tarmoqli shifoxona va oilaviy poliklinika barpo etildi.

E'tiborlisi, tuman hokimligi binosida 38 ta davlat idorasi jamlandi. Bu esa aholiga katta qulaylik yaratmoqda. Bir yumushni bitirish uchun idoramadira sarson bo'lib, vaqt yo'qotgan fuqarolar endi barcha xizmatni bir joyda olishyapti. Prezidentimiz Ko'kdaladagi bunyodkorlik ishlari bilan tanishish jarayonida bunday yaxlit va mutanosib sharoitlar hamma tumanlar uchun namuna ekanini ham alohida ta'kidladi.

Aholini munosib ish o'rinlari bilan ta'minlash



Hoson PAYDOYEV olgan suratlar

katta o'zgarishlarga yuz tutayotganining guvohiga aylanyapmiz. Buni bitta Qashqadaryo viloyatidagi bunyodkorlik misolida ko'radigan bo'lsak ham uning ko'lamiga yana bir bor amin bo'lamiz.

Viloyat ulkan o'zgarishlar, islohotlar og'ushida. Kechagina Yakkabog' tumanidagi 18 gektardan iborat tashlandiq hududda bugun zamonaviy shaharsozlik mo'jizasi qad rostladi. "Yangi O'zbekiston" massivi – bu nafaqat Yakkabog' tumanining, balki butun Qashqadaryoning ko'rkam, ko'zni quvontiradigan go'zal maskaniga aylandi. 54 ta ko'p qavatli uy, zamonaviy bog'cha, 3 qavatli "Eko bozor" barpo etildi.

2023-yil 28-noyabrda Prezident qarori asosida Qashqadaryo viloyatining tog'li-rekreatsiyon hududlarida zamonaviy xizmat ko'rsatish va turizm majmualari barpo etilayotganiga hali ko'p bo'lmadi. Lekin qisqa vaqt davomida xorijiy davlatlarning malakali ekspertlari va yetakchi kompaniyalari ishtirokida Miraki, Amir Temur, Uloch va Polmon mahallalarida sayyohlar uchun qulayliklar yaratilmoqda. Kechagina soy bo'yli betartib, oromgohlarda infratuzilma yetishmasdi. Bugun bu manzil yaxlit turizm klasteriga – "Miraki" xalqaro turizm markaziga aylandi.

Yoki bo'lmasa, O'zbekiston xaritasida Yurtboshimiz tashabbusi bilan Ko'kdala tumanining paydo bo'lganiga endigina 3 yil bo'ldi. Ko'kdala

bugunning dolzarb masalasidir. Inchinun, bu Qashqadaryoga ham taalluqli.

Ma'lumotlarga ko'ra, yil boshidan buyon 284 ming odamning bandligi ta'minlanib, yil oxirigacha yana 470 ming kishini band qilish, 150 ming oilani kambag'allikdan chiqarish, Kitob tumani, Qarshi va Shahrisabz shaharlarini "ishsizlik va kambag'allikdan xoli hudud"ga aylantirish bo'yicha rejalari belgilangan. Buning uchun ishsiz fuqarolarni xorijiy tillarga o'qitib, ilg'or mamlakatlarga ishga yuborishdan tortib, kimoshdi savdosida sotiladigan 120 dan ortiq obyektlar va 400 gektar yer negizida korxonalar tashkil qilib, 70 ming ish o'rni ochish choralarini rejalashtirilgan.

Bu sohada ishlar jadal davom etyapti. Viloyatda 3,5 mlrd. dollar investitsiya bo'yicha katta marra olingan. Investitsiya – yangi ish o'rinlarining ko'payishi, kambag'allikning qisqarishi natijasida aholi farovonligining oshishi, demakdir.

Bu kunlarga osonlikcha erishilmadi. Barcha evrilishlar, avvalo, odamlar ongidagi o'zgarish tufayli ro'y bermoqda. Atrofdagi yangilanishlar qashqadaryoliklar tafakkuridagi o'zgarishlarga sabab bo'layotir. Ertangi kunga muqarrar ishonch esa, albatta, insonni ko'zlagan manzili sari eltmasdan qo'ymaydi.

Komila KAROMOVA,
Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi
Qashqadaryo viloyati bo'limi rahbari, senator.



HAYOTIY TASHABBUSLAR – TARAQQIYOT VA FAROVONLIK OMILI

Prezidentimiz har bir hududga faqat reja va topshiriqlar bilan emas, balki xalq bilan ochiq muloqot qilish uchun tashrif buyuradi. Bu kabi uchrashuvlar odamlarda ijroviy kayfiyat, ko'tarinkilik va yurt ravnaqiga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi.

Ayniqsa, Qashqadaryo zaminida davlat rahbarining tashrihi har doim o'zgacha ishtiyiq bilan kutiladi. Va bunday ochiq, hayotiy va samarali muloqotlar xalq bilan davlat o'rtasida hamijhatlikni mustahkamlab, yurt rivojiga kuchli turki bo'lmoqda. Davlatimiz rahbarining alohida e'tibori tufayli bu hududdagi ijtimoiy-siyosiy muhit, iqtisodiy yuksalish va xalq turmush tarzida ulkan yangilanishlar kuzatilmoqda.

So'nggi yillarda vohada ijtimoiy-iqtisodiy sohalarida keng ko'lami islohotlar amalga oshirildi. Bu o'zgarishlar raqamlarda o'z ifodasini topmoqda. Misol uchun, 2016-yili viloyat yalpi hududiy mahsuloti 20,1 trln. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda yilga kelib bu ko'rsatkich 80,7 trln. so'mga yetdi. Ya'ni iqtisodiy o'sish qariyb to'rt barobarga oshdi.

Iqtisodiy o'sish bilan birga aholi turmush darajasini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar ham samara beryapti. Masalan, 2016-yili aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash darajasi 37 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 59,4 foizga yetgani e'tiborga molik.

Ta'lim sohasida ishlar ko'lami yanada keng. Viloyat bo'yab 314 ta maktabda qurilish va ta'mirlash ishlari bajarildi, 690 tasi esa to'liq jihozlandi. Shuningdek, 10 ga yaqin yangi, zamonaviy maktablar barpo etildi. Bu raqam va ko'rsatkichlar mamlakatimiz iqtisodiy salohiyatida Qashqadaryoning hisssasi kattaligini ko'rsatadi.

Prezidentimizning bu galgi tashrihi ham yurtimizdagi iqtisodiy islohotlarning samalarini yana bir bor namoyon etdi. Ayniqsa, "Alp texno servis" kabi yuqori texnologiyali va eksportga yo'naltirilgan korxonalar iqtisodiyotimizni rivojlantirishda muhim rol o'ynamoqda. Ushbu korxonada yil davomida 500 ming donagacha televizor va elektron platalar ishlab chiqarib, mahsulotlarining 70 foizi xorijiy bozorlarga eksport qilinadi. Bu – Qashqadaryoda sanoat salohiyatini yaqqol ko'rsatadigan misol.

"Alp texno servis"dagi dual ta'lim tizimi orqali yosh mutaxassislar tayyorlanishi ham sanoatning barqarorligi va yuqori texnologik rivojlanishi uchun muhim omil bo'layotir. Davlatimiz rahbarining qashqadaryolik faollar bilan poyezddagi ochiq va samimiy muloqotida yurtimiz rivoji yo'lidagi muhim qadamlar va odamlar turmushini yaxshilashga qaratilgan ezgu maqsadlar xususida so'z bordi.

"Inson qadri uchun, inson baxti uchun" degan g'oya asosida ro'yobga chiqarilayotgan keng ko'lami islohotlar, xususan, iqtisodiy tarkibiy o'zgarishlar va yo'l infratuzilmasini rivojlantirish loyihalari Qashqadaryoda hayot sifatini oshirishga xizmat qilyotir. Ayniqsa, ijtimoiy davlat sifatida O'zbekistonda aholining sog'lig'ini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratilyapti. Shu maqsadda shifoxonalarda zamonaviy qulayliklar yaratilmoqda, sohaga xorijiy va mahalliy investitsiyalar jalb etilib, xususiy tibbiyot xizmati ham jadal rivojlantirilyapti.

Bu borada Qashqadaryoda ham katta ishlar qilyinyapti: hududda 700 dan ortiq xususiy klinika tashkil etilgan bo'lib, ularda 72 turdagi tibbiy xizmatlar aholiga sifatlil tibbiyot yordamini taqdim etyapti.

Shahrisabzda yaqinda ishga tushirilgan "Oq saroy" klinikasi voha aholisi uchun katta imkoniyatlar eshigini ochdi. Davlat rahbarining ushbu ko'p tarmoqli kardiologiya markazi faoliyati bilan tanishishi esa mamlakatimizda aholi salomatligini mustahkamlashga qaratilgan davlat siyosatini ijrosida muhim bosqich bo'ldi.

Yangi zamonaviy klinika nafaqat yurak-qon tomir kasalliklarini davolashda yuqori texnologiyalardan foydalanish imkonini beradi, balki malakali mutaxassislar tayyorlash va tibbiy xizmatlarni har bir hududga yetkazishda ham muhim ahamiyatga ega.

E'tiborlisi, markazda hozircha O'zbekistonda yagona bo'lgan sun'iy intellekt yordamida ishlaydigan zamonaviy exokardiografiya uskunasi

mavjud bo'lib, bu yuqori aniqlikda tashxis qo'yish imkonini beradi. Shuningdek, bu yerda bir vaqtning o'zida 4 ta va kuniga 25 tagacha yuqori texnologiyali kardiolarholik amaliyotlarini o'tkazish imkoniyati yaratilgan.

Yakkabog' tumanidagi "Yangi O'zbekiston" massivi aholi turmush farovonligini yuksaltirish, shaharsozlik va infratuzilmani rivojlantirish, odamlarga qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan majmualardan biri. Ilg'or loyiha asosida qurilgan ushbu massiv nafaqat ko'rkam ko'p qavatli uylari, balki qulay, muvozanatli infratuzilmasi, quyosh energiyasiga ulangan ekologik yechimlari, sog'lom turmushga yo'naltirilgan obyektlari bilan ham e'tiborga loyiq. 18 gektar maydonda qad rostlagan 54 ta besh qavatli uyda 1 400 ta xonadonning egalariga topshirishi nafaqat turarjoy muammosini hal etmoqda, balki aholida sifatlil hayot muhitini yaratayotir.

Massivda qurilgan "Eko bozor" har bir oilaga to'g'ridan-to'g'ri, sifatlil va munosib narxlarda mahsulot xarid qilish imkonini beradi. Prezidentimizning "Bozorlar to'kinlik, farovonlik va xalq madaniyatini ko'rsatadi", degan so'zlari ana shunday zamonaviy bozor infratuzilmasining ahamiyatini aniq ifoda etdi.

Bolalar bog'chasi, sport va sog'lomlashtirish maydonlari, servis markazlari, sayilgohlari – bularning barchasi bir konsepsiya asosida uyg'un tarzda qurilgani "Yangi O'zbekiston"ning haqiqiy yuzi, xalqqa xizmat qiluvchi davlat g'oyasining hayotdagi ifodasidir.

Bilamizki, Qashqadaryo tabiat mo'jizalariga boy, har bir burchagida tabiatning o'ziga xos go'zalligi mujassam. Bu diyorda yilning to'rt faslini bir vaqtning o'zida kuzatish mumkin. Vohaning tabiati – bu haqiqiy san'at asari, tabiat yaratgan ulug' ajoyibot. Bu yerda yashaydigan xalq ham tabiatning asl mo'jizasi, aslida.

Prezidentimizning tashrif davomida bergan topshiriqlari, taklif va maslahatlari voha ahli uchun haqiqiy dasturialmadir. Zotan, barcha yo'nalishlarda amalga oshirilayotgan loyihalar va yaratilayotgan imkoniyatlar Qashqadaryoni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqadi, aholi farovonligini ta'minlashga zamin yaratadi.

Shahnoza XOLMAHAMATOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.
Hasan PAYDOYEV olgan suratlar.

MEHR BERSANG, TOMORQA – DAROMAD MANBAI

Xalqimizda "Birni ko'rib, fikr qil, birni ko'rib, shukr qil" degan maqol bor. Yurtimizdagi tinchlik, dasturxonlarimiz to'kinligi, albatta, shukronalik uyg'otadi. Endilikda mamlakatimizda aholi ehtiyojiga yetib ortadigan darajada don yetishtirilmoqda. Zaminimizning unumdor, dehqonlarimizning omilkorligi tufayli yilning to'rt faslida ham ziroatchilik bilan shug'ullanish mumkin.

Bir olmaning ikki yuzi

Bunga Navoiy viloyatidagi ham ko'plab misollar keltira olamiz. Ayniqsa, Karmana tumanidagi Jaloyir qishlog'ining tomorqachilik madaniyati haqida gap ketganda, hududning Shibzon, Gurda, Arabxona, Yuqori bug', Allon kabi mahallalari aholisi ishning hadisini olgan odamlar sifatida tilga olinadi. Jaloyirda tomorqalardan har yili uch-to'rt marta foydalaniladi. Misol uchun, "Arabxona" MFYda istiqomat qiluvchi qirq yoshli Maqsud Nurimov o'zining 32 sotixlik tomorqasidan har yili 350 – 400 million so'm daromad oladi. Bir mavsumdagi daromadini Zarafshon daryosi bo'yida 60 sotixli issiqxonaga qurilishiga yo'naltirib, tashlandiq yerni o'zlashtiradi.

– Yil-o'n ikki oy bozorga mahsulot olib chiqamiz, – deydi M. Nurimov. – Mehnatimizning ortidan havas qilgulik imoratlar tikladik. Shahardan uch xonali uy oldik, qo'sha-qo'sha mashinamiz bor. Maqsud Nurimov bir mavsumda bozorga 65 tonna pomidor, 5 tonnaga yaqin limon va boshqa dehqonchilik

mahsulotlari olib chiqadi. Ko'chat yetishtirilishdan tortib, ularni dorilash, changlantirish va boshqa barcha tadbirlarni umr yo'ldoshi bilan birga amalga oshiradi.

Tomorqasi ortidan o'z orzu-havaslariga yetishib yurgan yurtodoshlarimizdan yana biri – G'ulom aka Jo'rayev tumaning Shibzon mahallasida 25 sotix yerga ega. Yil boshidan Jo'rayevlar xonadoni pilyoz va boshqa ko'katlardan tashqari bozorga uch marta ismaloq olib chiqdi. Aprelda to'rt sotix yerdagi sabzi yetiladi, ortidan qulupnay. Dekabring oxirlarida ekilgan kartoshkani yig'ishtirib olishadi. Xullas, hosildan bo'shagan yerga peshmash-pesh ekin ekilib borilaveradi. Shularning ortidan ro'zgorga kirayotgan daromadi uzilmaydi.

– Oltita qoramolimiz bor, – deydi G'. Jo'rayev. – Shundan ikkitasi sog'in sigir. 20 bosh qo'y, 50 ta tovuq tutganmiz. Xullas, bozordan hech narsa xarid qilmaymiz. Qizig'i, Shibzonda bozorning o'zi yo'q.

Boisi, 1212 oilaga birlashgan mahalla ahlining 164,4 gektarlik tomorqasi bor. Shularning to'rt yuzdan ortig'i o'z issiqxonasiga ega. Mahallada yetti yildan buyon birorta ham jinoyat qayd etilmagan.

Jaloyir qishlog'ining mahallalari Zarafshon daryosi bo'yida joylashgan. Azim daryo o'z sohillaridagi unumdor yerlardan Xatirchi, Navbahor va Qiziltepa tumanlaridagi o'nlab mahallalarga joy bergan. Biroq barchasida ham mavjud suv va yer resurslaridan foydalanish samarali yo'lga qo'yilmagan. Misol uchun, Karmanadagi Xazora qishlog'i haqida iliq fikrlarni aytilish mushkul. Unda-bunda, nari-

kambag'allik va aholi bandligini ta'minlash bo'yicha ko'rsatkichlar noxushligini bartaraf etish va sog'lom ijtimoiy muhit yaratish maqsadida ko'rgazmali seminarlar tashkil qilindi. Navoiy shahrida o'tgan seminar ishtirokchilari Karmana tumanining Uyrot mahallasidagi Elmurod Kenjayev xonadonida bo'lib, atigi 25 sotix yerdan omilkorlik bilan foydalanilisa, qanday samaralarga erishish mumkinligiga guvoh bo'lishdi.

– Tomorqamizdagi issiqxonadan yiliga ikki bor hosil olamiz, – deydi E. Kenjayev. – Har qancha yerdan samarali foydalanib, 45 turdagi turli ko'chatlar yetishtiramiz.

“Bozordagi ulgurji va chakana savdoni solishtirganimizda narxlardagi tafovut 20 – 25 foizni tashkil etishiga guvoh bo'ldik. Demak, hafta mobaynida bir oila qishloq xo'jaligi mahsulotlariga 400 ming so'm sarflasa, shuning 80 – 100 ming so'mini o'rtadagi odamga topshiradi.”

beri tiklangan issiqxonalarini aytmasak, aholining yoppasiga yerdan samarali foydalanish ko'rsatkichi nihoyatda past. Xazoraliklar azaldan anorchilikning hadisini olgan bo'lsa-da, bu bo'yicha yaroq etib ko'zga tashlanadigan natija yo'q. Tabiiyki, bu aholining turmush tarzi va farovonligiga ta'sir ko'rsatmoqda.

Bunday mahallalar Navoiy viloyatida 41 ta. Aynan, shunday mahallalarda

Yillik daromadimiz 450 million so'm atrofida. Qisqasi, tinmaymiz, ketmonimiz zang ko'rmaydi. Shu mehnatimiz ortidan, shukurki, orzu-havaslarimizga yetishyapmiz.

Albatta, holva degan bilan og'iz chuchimaydi. Tomorqa jismoniy mehnat talab qiladi. Unga har kuni ikki soat vaqtini bag'ishlagan kishi o'rtacha ikki sotixdan yerga ishlov bersa, bir haftada

o'n to'rt sotix yerni o'zlashtiradi. Bu – har biridan ikki sotixdan ekilganida 400 kg. kartoshka, 500 kg. sabzi, 700 kg. pilyoz, 160 kg. sarimsoq pilyoz, 550 kg. pomidor, 600 kg. bodring, pulga chaqqanda esa bir mavsumda 10 – 12 million so'm daromad, deganidir.

Navoiy shahridagi "Markaziy dehqon bozori"da deyarli har kuni ulgurji bozor bo'ladi. Asosan, Jaloyir va qo'shni viloyatdan kelgan tomorqachilar mazkur bozorga o'z mahsulotlarini keltirib, "ko'tara"siga sotib ketishadi. Aslida, ushbu bozorning xaridori ham, sotuvchisi ham bir-birini yaxshi tanishadi. Savdo ham ko'p cho'zilmaydi. Eng muhimi, tomorqachi peshtaxta ortida o'tkazadigan vaqtini tejaydi.

Bozordagi ulgurji va chakana savdoni solishtirganimizda narxlardagi tafovut 20 – 25 foizni tashkil etishiga guvoh bo'ldik. Demak, hafta mobaynida bir oila qishloq xo'jaligi mahsulotlariga 400 ming so'm sarflasa, shuning 80 – 100 ming so'mini o'rtadagi odamga topshiradi. Aytaylik, u shahar atrofidagi qishloqlardan bo'lsa, bozorga kelib ketish uchun kamida 4-5 soat vaqt sarflaydi. Demochi bo'lganimiz, bozorga ham bormay bozor-o'charga sarflanajak ikki soat vaqtini o'z tomorqasiga ishlatgan odam har tomonlama yutadi. Kerakli mahsulotlarni o'zi yetishtiradi. Oila a'zolarining bandligini ta'minlaydi. Qolaversa, tomorqa salomatlikning beminnat himoyachisi.



– Bir kam yetmishga kirdim, – deydi uyrotlik Elmurod aka Kenjayev. – Shu paytgacha birorta dor-i chmanganman. Tibbiy kartam bor-yo'qliginiyam bilmayman. Sog'lom bo'lish va uzoq umr ko'rish siri – jismoniy mehnat!..

Mamlakatimiz rahbari tomorqalardan foydalanish masalalariga e'tibor qaratib, sohaning barcha muammolari yechimida kompleks yondashuv vazifasini ustuvor belgiladi. Xususan, tomorqa egalari oyoqqa turib olungu qadar ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, kredit va subsidiyalari berish orqali moddiy ko'maklashish, har bir hududning o'ziga xosligini inobatga olib, mahsulot yetishtirishga ixtisoslashtirish vazifalarini qo'ydi. Albatta, bularning barchasi aholi farovonligini ta'minlash bilan birga, yurtimizda shiddat bilan kechayotgan ijtimoiy jarayonlarga daxldorlik hisssini ham oshiradi.

Temur ESHBOYEV
("Xalq so'zi")

MILLIY IFTIXOR MANBAI

Insoniyatning tarixiy taraqqiyotida XX asr alohida ahamiyatga ega. Bu asrda shu qadar ko'p olamshumul voqealar ro'y berdiki, ular o'zining mazmun-mohiyati bilan bir necha asrlarga tayyidi. XX asr voqealariga bugungi istiqlol mafkurasi nuqtayi nazaridan yondashsak, bu yuz yillik Turkiston xalqlarining milliy ozodlik harakatlari bilan boshlandi va shu harakatning o'z oldiga qo'ygan ulug' maqsad ro'yobi, ya'ni sho'ro mustabid tuzumining inqirozga uchrashi va qizil imperiyaning parchalanishi bilan tugadi.

Darhaqiqat, Turkiston jadidchilik harakati va jadid adabiyotining yorqin namoyandalari bo'lgan Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lpon, Abdulla Avloniy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Hamza Hakimzoda

to'rt asosiy yo'nalishda tashkil etilgan. Xususan, monografiya va ilmiy maqolalar tayyorlab, nashr qilish, mamlakatimizning yetakchi jadidshunoslari ishtirokida konferensiya va davra suhbatlari o'tkazish, targ'ibot ishlarini amalga oshirish, olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar natijasida ishlab chiqilgan xulosalarni o'quv jarayoniga tatbiq etish shular jumlasidandir.

Markaz olimlari tomonidan "Ma'rifat bayrog'ini tutgan jadidlar" nomli 20 daqiqalik videorolik tayyorlanib, barcha oliygohlar elektron platformalariga joylashtirildi. 2024-yilning 22-mayda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi bilan hamkorlikda qator jadidshunos va ijodkorlar ishtirokida "Abdurauf Fitrat - XX asr sharqshunosligining yirik namoyandasi" mavzuida davra suhbatlari o'tkazildi. Ushbu ilmiy mushohadalar bayoni va muhokamasi nihoyatda qiziqarli o'tdi. Fitratning o'z davrining qomusiy olimi sifatida ko'p qirrali faoliyati qiziqarli ma'lumotlar bilan yoritildi. Uning ilg'or fikrlari, bilim va faqat bilim orqali rivojlanish mumkinligi haqidagi g'oyalari keng targ'ib qilinishi zarurligi ta'kidlandi.

Prezidentimizning 2024-yil 27-dekabrda "Turkiston jadidlik harakatining asoschisi, atoqliq adib va jamoat arbobi, noshir va pedagog Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 150-yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qarorida belgilangan chora-tadbirlar doirasida shu yil 6-may kuni "Mahmudxo'ja Behbudiy ilmiy-adabiy merosini o'rganishning dolzarb masalalari" mavzuida davra suhbatlari o'tkazildi. Ushbu tadbir doirasida Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida "Jadidlar burchiga" ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Yoshlarimiz vatanparvarlik va ilmparvarlik namunasini bo'lgan jadid bobolarimizning hayot yo'llari hamda yaratgan asarlari haqida batafsil ma'lumot olish imkoniyati yaratilgan ekspozitsiya bilan tanishtirildi. Ochilish marosimi olimlar ishtirokida Behbudiy merosiga bag'ishlangan ilmiy davra suhbatiga ulanib ketdi. Unda taniqli olim Rustam Sharipovning "Behbudiy dahosi" kitobi taqdimoti o'tkazildi. Toshkent shahridagi qator oliygohlar qoshida faoliyat olib borayotgan akademik litseylarda ham markaz olimlari ishtirokida mavzuga oid uchrashuv va suhbatlar bo'lib o'tdi.

Nuqtai nazar

Turkiston milliy ozodlik harakati o'z mafkurasi bilan ahamiyatli bo'lib, uni yaratishda "jadidchilik" deb nom olgan hodisaning boshida turgan ziyolilarimiz alohida o'rin tutadi. Ushbu harakatning yuzdagi kelishi va shakllanishi bilan bog'liq masalalarni o'rganish oldimiddagi vazifalardan biri ekan, jadid adiblarining adabiy-estetik qarashlari bilan bir qatorda ularning falsafiy, axloqiy, siyosiy va huquqiy qarashlariga ham nazir tashlash va bu murakkab ilmiy muammolarni turli fanlar uzviyligida o'rganish ham alohida ahamiyat kasb etadi.



Davlatimiz rahbarining ta'бири bilan aytganda, zamonaning ilg'or namoyandalari bo'lgan jadidlar g'oyat murakkab va qiyin sharoitda bilim va ma'rifat tarqatish, ta'lim-tarbiya sohasini tubdan isloh etish orqali milliy taraqqiyotga erishish g'oyasi bilan maydonga chiqdi. Biz ma'rifatparvar bobolarimizning muqaddas orzularini ro'yobga chiqarish uchun mamlakatimizda yangi Renessans paydovorini yaratishni strategik vazifa qilib belgilaganmiz. Shu maqsadda ilm-fan, ta'lim-tarbiya, madaniyat sohaslarida tub islohotlarni amalga oshirmoqdamiz. Biz xalqaro ilmiy markazlar, dunyo olimlari bilan hamkorlikda jadidlar faoliyatini yanada chuqur o'rganishni dolzarb vazifa, deb hisoblaymiz. Bu noyob meros orqali bugungi kunda insoniyatni tashvishga solayotgan juda ko'p savollarga to'g'ri javob topa olamiz. Mazkur bebaho boylikni qancha faol targ'ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadri ni anglab yetadi.

Niyoziy, Tavallo, Is'hoqxon Ibrat va boshqa ko'plab jadid bobolarimiz xalqimiz erki hamda mamlakatimiz mustaqilligi yo'lida o'z jonini fido etgan siymolar sifatida har birimizning qalbimizdan o'rin olgani ayni haqiqat. Shu nuqtayi nazardan, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzurida tashkil etilgan Jadidshunoslik ilmiy-tadqiqot markazi faoliyati e'tiborga molik, deb hisoblaymiz. Mana, bir necha yil davomida markaz olimlari tomonidan XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Turkistonda vujudga kelgan jadidchilik hodisasining ilmiy, madaniy, tarixiy, siyosiy, huquqiy, badiiy-estetik qirralari ilmiy jihatdan o'rganib kelinmoqda. Ammo shuni ham alohida ta'kidlab o'tish kerakki, ushbu tadqiqotlar doirasida Turkiston va Sharq mamlakatlarida yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy vaziyat, adabiy oqimlar ham uzviy bog'liqlikda o'rganilmoqda, bu ham bugungi sharqshunoslik ilmi o'ldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Bugungi kunda markaz faoliyati

Fikrimizcha, yuqoridagi nomlari tilga olingan nashrlar mazmun-mohiyatiga ko'ra, milliy jadidshunoslik hamda bugungi kun sharqshunosligi ilmiy munosib hissa qo'shadigan tadqiqotlar bo'lish bilan birga, yosh avlodni milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasi ruhida tarbiyalashga xizmat qiladigan milliy iftixor manbai bo'lib qolishi, shubhasiz.

Gulchehra RIXSIYEVA, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti rektori, professor.



Klublar o'rtasidagi jahon chempionatida ilk o'zbek futbolchisi

AQShda futbol bo'yicha klublar o'rtasidagi jahon chempionati davom etmoqda.

Kecha Pep Gvardiola boshchiligidagi Angliyaning "Manchester Siti" klubi BAAning "Al Ayn" jamoasiga qarshi 2-tur uchrashuvini o'tkazdi.



Unda ingliz klubi 6:0 hisobida g'alaba qozondi. Mazkur uchrashuvda O'zbekiston terma jamoasi himoyachisi Abduqodir Husanov 61 daqiqa harakat qilib, jamoasi muvaffaqiyatiga hissa qo'shdi.

Gimnastika bo'yicha chellenj kubogi yakunlandi

Poytaxtimizda sport gimnastikasi bo'yicha jahon chellenj kubogi o'z nihoyasiga yetdi.

Final bahslarining ikkinchi kungi bellashuvlarida O'zbekiston terma jamoasi vakillari muvaffaqiyatli ishtirok etib, 2 ta oltin (Ahrorxon Temirxonov - parallel brus, Abdulaziz Mirvaliyev - tayanib sakrash) hamda 1 ta kumush (Odinaxon Robjonova - to'sin) medallariga sazovor bo'ldi.



Shu tariqa hamyurtlarimiz musobaqa davomida jami 4 tadan oltin va kumush, 1 ta bronza medallariga ega chiqdi.

Kurashchilarimiz 16 ta medalni qo'lga kiritishdi

Vyetnamda sport kurashlari bo'yicha "U23" yosh toifasidagi Osiyo chempionati bo'lib o'tdi.

Erkin kurash ustalari o'rtasida kechgan so'nggi kun bahslarida atletlarimiz 2 ta kumush va 1 ta bronza medallarini qo'lga kiritdi. E'tiborlisi, mazkur yosh toifasidagi sportchilarimiz qit'a birinchiligini 2 ta oltin, 5 ta kumush va 9 ta bronza, jami 16 ta medal bilan yakunlashdi.



Bugun "U17" yosh toifasidagi polvonlarimiz bahslarga kirishadi.

Qilichboz qizlarimiz qit'a birinchiligida sovrindor

Indoneziyaning Bali shahrida o'tkazilayotgan qilichbozlik bo'yicha Osiyo chempionatida O'zbekiston terma jamoasi navbatdagi medalga ega chiqdi.

Gap shundaki, sablya bo'yicha ayollar terma jamoamiz bronza medalini qo'lga kiritdi.



Saralashda Xitoy Taypeyi, Gonkong jamoalarini mag'lub etgan qizlarimiz yarimfinalda Janubiy Koreyaga 42:45 hisobida imkoniyatni boy berdi. Uchinchi o'rin uchun bahsda esa xitoylik raqibalaridan 45:43 hisobida ustun keldi.

"Xalq so'zi".

ZAMONAVIY OROMGOH - BOLAJONLAR IXTIYORIDA

Buxoro viloyatida yoz mavsumining dastlabki davrasida salkam 20 ming nafar o'g'il-qizning oromgohlarda hordiq chiqarishi, salomatligini mustahkamlashi uchun shart-sharoitlar yaratilgan. O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi tashabbusi bilan maxsus manzilli dastur asosida "Buxoro" sog'lomlashtirish oromgohi barpo etilib, foydalanishga topshirilgani ham bolajonlar va ularning ota-onalarini benihoya xursand qildi.

Yozgi ta'til - 2025

Ushbu maskan 250 nafar o'g'il-qizga mo'ljallangan bo'lib, 4,2 gektar maydonni egallagan. Unda qo'sh qavatli yotoqxona, mashg'ulot va tibbiyot xonalari, oshxonasi, amfiteatr, kutubxona, sport maydonchalarini ko'rish mumkin. Qisqa aytganda, bolajonlarning jismonan chiniquishi, bilimlariga bilim qo'shilishi, iqtidorini yuzaga chiqarishi uchun zamonaviy shart-sharoitlar yaratilgan. Bu yerdagi qulayliklarni ko'rib, "Buxoro" shunchaki dam olish maskani emas, balki barkamol avlod tarbiyasiga qaratilgan yirik loyiha ekaniga ishonch hosil qilasan, kishi.



Bolalar sog'lomlashtirish oromgohini foydalanishga topshirish munosabati bilan o'tkazilgan tantanali marosimda shu haqda so'z bordi.

Istam IBROHIMOV ("Xalq so'zi").

SAYFIDDIN QUTUZ IZIDAN...

Xorazm viloyati hokimligi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi hamda O'zbekistonning Misrdagi elchixonasi hamkorligida bir guruh tarixchi olimlar, jurnalistlar ishtirokida Misr Arab Respublikasiga "Sayfiddin Qutuz izidan..." nomli ilmiy-amaliy ekspeditsiya tashkil qilindi.

Ilmiy-amaliy ekspeditsiya

Tarixdan ma'lumki, Sayfiddin Qutuz Jaloliddin Manguberdining jiyani, xorazmshohlar sulolasi vakili bo'lib, Misr sultonligi taxtini egallagan va buyuk sarkarda sifatida bu yurti mo'g'ul bosqinidan saqlab qolgan. - Safar davomida Qohiradagi Xalq kutubxonasida "Sayfiddin Qutuz: so'nggi zarba" kitobining taqdimoti hamda "Sayfiddin Qutuz tarixining yangi sahifalari" mavzuida ilmiy-amaliy anjuman bo'lib o'tdi, - dedi Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining Xorazm viloyati bo'limi rahbari Bekzod Abdirimov. - E'tiborga molik yana bir jihat, Misr va boshqa arab davlatlarida yozilgan Turon tarixiga aloqador 50 ta ilmiy tadqiqot ishlari qo'lga kiritildi. Ular ichida akademik doiralarda haligacha ilmiy muomalaga kiritilmagan muhim manbalar bor.

Odilbek ODAMBOYEV ("Xalq so'zi").

Fikr Mamlakatimiz iqtisodiy tafakkuri oyinalari

Iqtisodiy taraqqiyotning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi, avvalo, ilmiy asoslangan yondashuv, to'g'ri tahlil va strategik fikrlashga bog'liq. Bunday yondashuvning shakllanishida esa olimlarimizning ilmiy merosi, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga bergan bahosi beqiyosdir. Shu jihatdan "O'zbekiston iqtisodchi olimlari antologiyasi" katta ilmiy va amaliy manba sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu kitobda iqtisodiyot sohasida faoliyat yuritgan va yuritayotgan taniqli olimlarning hayoti, tadqiqot yo'nalishlari, asosiy yutuqlari, ularning mamlakatimiz iqtisodiyotiga qo'shgan amaliy va nazariy hisssasi keng yoritilgan.

Kitobning mazmun-mohiyati ham bo'lakcha. Uning antologiyasida iqtisodiy fikrning shakllanishi va rivojlanish jarayoni batafsil yoritilgan. Turli bo'limlardan iborat bo'lgan kitob har bir olim haqida individual tahlillar, biografik ma'lumotlar va eng muhim, ularning ilmiy tadqiqotlari natijalarini o'z ichiga oladi.

Asarda keltirilgan ma'lumotlar makroiqtisodiyot, moliya, agrar islohotlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, savdo balans, soliq siyosati, mehnat bozori, raqamli iqtisodiyot va hududiy rivojlanish strategiyalarini qamrab oladi. Har bir biografiya orqali nafaqat shaxs, balki bir davrning iqtisodiy holati namoyon bo'ladi.

Mazkur antologiya orqali ilmiy hamjamiyat, davlat rahbarlari, iqtisodiy siyosatchilar va tadqiqotchilar uchun qimmatli axborotlar taqdim etiladi. Shuningdek, QR-kodlar orqali bevosita elektron manbalarga murojaat qilish imkoniyati ham mavjud.

O'quvchilar uchun manba sifatidagi ahamiyati ham muhim. Bu kitob, avvalo, oliy ta'lim muassasalaridagi talabalar, tadqiqotchilar, magistrantlar va doktorantlar uchun zarur o'quv manba hisoblanadi.



Birinchiidan, antologiyada keltirilgan tadqiqotlar va tahlillar orqali talabalar iqtisodiy masalalarga nazariy va amaliy yondashuvni shakllantirishni o'rganadi.

Ikkinchiidan, amaliyotchi iqtisodchilar va davlat boshqaruvidagi mutaxassislar bu kitob orqali tarixiy jarayonlarni tahlil qilish va hozirgi kun muammolariga kompleks yondashuv topish imkoniyatiga ega bo'ladi. Chunki har bir olimning fikrlari va ilmiy merosi zamonaviy muammolarga hali ham dolzarb bo'lib qolmoqda.

Uchinchiidan, kitob akademik Qolaversa, mazkur kitob har bir olim, tadqiqotchi, mutaxassis va talabaning ish stoida turishi kerak bo'lgan mukammal qo'llanma hisoblanadi. U milliy tafakkur, iqtisodiy islohotlar va fan taraqqiyotini uyg'unlashtirgan holda yurtimizning iqtisodiy suverenitetini ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

tadqiqotlar uchun metodologik asos sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ilmiy ishlar yozish, dissertatsiyalar tayyorlash, tahlil metodlarini o'rganishda bu antologiya boy tajriba maktabidir. Antologiyaning yana bir afzaligi - undagi ma'lumotlarning multidissiplinar xususiyatidir. Ya'ni iqtisodiyotning turli sohalar bilan birga, huquq, davlat boshqaruvi, sotsiologiya, ta'lim kabi sohalariga ham bag'ishlangan ma'lumotlar mavjud. Bu esa kitobni keng qamrovli tahlil manbaiga aylantiradi. Kitobda keltirilgan faktlar, diagrammalar, raqamli tahlillar, infografikalar ham o'quvchilar uchun tushunarli va qiziqarli bo'lishi ta'minlangan. Ayniqsa, QR-kodli ilova materiallar va elektron bazalarga ulangan ma'lumotlar talabalar uchun zamonaviy o'quv vositasini yaratadi.

Xulosa o'rinda aytish mumkinki, "O'zbekiston iqtisodchi olimlari antologiyasi" bu shunchaki bir risola emas. Bu - milliy iqtisodiy fikrlashning tarixiy taraqqiyotini o'z ichiga olgan, kelajakni ham asoslab beradigan ilmiy va amaliy manba. Undagi ma'lumotlar nafaqat o'tmishni yodga soladi, balki mamlakatimiz iqtisodiyotining ertangi yo'nalishlarini belgilashda yo'l-yo'riq bo'lib xizmat qiladi.

Qolaversa, mazkur kitob har bir olim, tadqiqotchi, mutaxassis va talabaning ish stoida turishi kerak bo'lgan mukammal qo'llanma hisoblanadi. U milliy tafakkur, iqtisodiy islohotlar va fan taraqqiyotini uyg'unlashtirgan holda yurtimizning iqtisodiy suverenitetini ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

Dilafroz NOSIRXO'JAYEVA, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori.

Ikuo Xirayama xalqaro madaniyat konvansaroyida rassom Botirali Umarovning "Ranglarga burkangan o'lkam" nomli shaxsiy ko'rgazmasi bo'lib o'tmoqda.

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi - 229. Buyurtma G-642. 13 107 nusxada bosildi. Hajmi - 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; Kotibxona 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator M. Begmuratov tomonidan sahilandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir S. Mamirov.
Musahhih S. Islomov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonada manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni - 00.25 Topshirildi - 00.35 1 2 3 4 5 6